DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Yangi nashr

8



Toshkent — 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Kirish 5

I BOB



SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT

1–2-dars. Shaxs 7
3-dars. Jamiyat 12
4–5-dars. Davlat 16
6-dars. Davlat funksiyasi 21
7–8-dars. Davlat shakllari 24
9-dars. Ijodiy faoliyat 31

II BOB



HUQUQ

10-dars. Axloq va huquq 35
11–12-dars. Huquq manbalari 40
13-dars. Huquq normasi 46
14-dars. Huquq tarmoqlari (sohalari) 51
15-dars. Huquqiy munosabatlar 56
16-dars. Ijodiy faoliyat 62

III BOB



HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

17–18-dars. Huquqiy xulq-atvor 65
19–20-dars. Huquqbuzarlik 69
21–22-dars. Yuridik javobgarlik 76
23–24-dars. Yuridik javobgarlikning oqibatlari 81
25–26-dars. Ijodiy faoliyat 87

IV BOB



VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA BURCHLARI

27-dars. Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari 91
28-dars. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari 95
29–30-dars. O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning javobgarligi 100
31–32-dars. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari 111
33-dars. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari 116
34-dars. Ijodiy faoliyat 120
Ayrim yuridik atamalarning izohli lug‘ati 122

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

QADRLI O‘QUVCHI!

Bugun yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning guvohi bo‘lyapsiz. Ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o‘zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas’uliyat yuklaydi. Jumladan, huquqshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas.

Insoniyat hamisha o‘z huquq va erkinliklarini tizimli hamda samarali himoya qilishga ehtiyoj sezgan. Demak, mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi tabiiy hol. Qo‘lingizdagi darslik sizga huquqshunoslikka oid dastlabki bilimlarni berishga xizmat qiladi. Ya’ni davlat va huquq asoslari fani siz uchun huquqshunoslikning nihoyatda boy, serqirra, shu bilan birga, murakkab, sirli olamiga kirishning debochasi bo‘ladi. Negaki huquqiy tafakkur, siyosiy va huquqiy dunyoqarash, ong hamda huquqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi davlat-huquqiy jarayonlar xususida tizimli bilimlar hosil qilish bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan, o‘z vatani taqdiriga befarq bo‘lmaydigan yosh avlodni tarbiyalash uchun muhimdir.

Mazkur darslik yordamida siz fanning maqsad va vazifalari, jamiyat va davlat tushunchalari, davlatning shakllari hamda funksiyalari haqida tasavvur hosil qilasiz. Bundan tashqari, darslikda axloq va huquqning umumiy va farqli jihatlari, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq shakllari (manbalari), huquq normasi, huquqiy munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Bugungi kun uchun global ahamiyat kasb etadigan dolzarb mavzular, jumladan, voyaga yetmaganlarning ma’muriy huquqbuzarligi va javobgarligi, intizomiy huquqbuzarligi va javobgarligi, fuqaroviy huquqbuzarligi va javobgarligi, jinoyati va jinoiy javobgarligi, shu bilan birga, xalqaro huquq normalarida voyaga yetmaganlarning huquqlari masalalarining eng muhim normalari, sizning yoshingizni hisobga olib, matn, rasm va boshqa zamonaviy pedagogik texnologiyalar ko‘magida bayon etilgan. Kerakli o‘rinlarda mualliflar jamoasi tomonidan milliy qomusimiz va boshqa shu sohaga aloqador normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilingan.

Biz — mualliflar jamoasi o‘ylaymizki, siz mazkur darslikni diqqat va maroq bilan o‘qib, tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lasiz.

Mualliflar jamoasi

KIRISH

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilan bo‘ladi.
Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo‘ladi.


Umar Hayyom

Davlat va huquq jamiyat hayotining odamlar, tashkilotlar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi muhim tarkibiy qismidir. Davlatning huquqiy tizimi va tuzilishi asoslarini tushunish fuqarolarga o‘z huquq va majburiyatlarini anglashga, shuningdek, mamlakat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Davlat va huquq asoslari fanida siz shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlari, huquqning asosiy tushunchalari va tamoyillari, davlatning tuzilishi, inson va fuqarolarning huquqlari hamda O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi qanday faoliyat ko‘rsatishi bilan tanishasiz.

Yuqoridagi bilimlarni o‘rganish natijasida sizda nafaqat huquqiy bilim va huquqiy madaniyat, balki qonunga va boshqa odamlarning huquqlariga hurmat, o‘z burch va majburiyatlaringizni anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu esa uyg‘un va barqaror jamiyatning asosidir.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘rganishda sizga tarix, tarbiya, ona tili va adabiyot, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya, biologiya hamda matematika fanlari yaqindan yordam beradi.

Davlat va huquq asoslari fanini o‘rganish jarayonida sizda quyidagilar shakllanadi:





I BOB

SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT

1–2-DARS. SHAXS

Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Alisher Navoiy

Faollashtiruvchi savollar







1. Rasmlarda tasvirlangan odamlar jismoniy, moddiy, aqliy, ma’naviy jihatlari bilan bir-biridan qanchalik farq qiladi deb o‘ylaysiz?
2. Sizning fikringizcha, rasmlardagi odamlarning qanday umumiy jihatlari bor?
3. “Odam”, “inson” va “shaxs” tushunchalari bir-biridan o‘zaro farq qiladimi?
4. Shaxs jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
5. Inson huquqlari hammaga tug‘ilganidan boshlab berilishini asoslang.
6. Har qanday inson uchun eng qadrli bo‘lgan narsalarni sanab bering.
7. Alohida toifadagi insonlar uchun qadrli bo‘lgan, lekin boshqalar uchun uncha ahamiyatli hisoblanmaydigan narsalarga misol keltiring.
8. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘xshash jihatlarini misollar yordamida aytib bering. Mazkur qadriyatlarning inson uchun ahamiyati yuqori bo‘lishi bu inson haqida qanday tasavvur uyg‘otadi?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

“Odam” tushunchasi biologik tushuncha bo‘lib, unga jonli tabiatning bir elementi sifatida qaraladi. “Inson” tushunchasi esa ijtimoiy tushuncha bo‘lib, undan kundalik so‘zlashuvda keng foydalaniladi. Shuningdek, o‘zaro suhbatlarda “kishi”, “kimsa” so‘zlarini ham qo‘llab turamiz. Biroq huquqshunoslik fanida hamda yuridik adabiyotlarda “odam”, “inson”, “kishi” yoki “kimsa” so‘zlaridan emas, balki aynan “shaxs” tushunchasidan foydalaniladi.

“Shaxs” tushunchasi “inson” tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Shu bilan birga, “odam” yoki “inson” tushunchalariga huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida qaralmaydi. Ular shaxs maqomidan tashqari holatda huquqiy munosabatlarning to‘la ishtirokchisi bo‘la olmaydi.

Yodda tuting

Shaxs — ongli ravishda o‘z faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida muayyan huquq va majburiyatlarga ega inson.

INSON

Umumijtimoiy tushuncha bo‘lib, muayyan jamiyatda insoniy fazilatlarga ega ekanlikni ifoda etadi.



ODAM



Biologik jihatdan fikrlash, so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu tufayli jonli tabiatning boshqa hamma jonzotlardan ustun turuvchi bir qismi.

SHAXS

Huquqiy munosabatlarning alohida ishtirokchisi bo‘lib, inson tushunchasining yuksak ko‘rinishidir.



Hamkorlikda bajaramiz

Xo‘sh, inson qanday qilib jamiyatga hissa qo‘shadigan shaxsga aylanadi? Qanday insonni biz buyuk shaxs deb atashimiz mumkin?

Shaxs ham, albatta, odam, inson, individ. Lekin unda tabiiy xususiyatlar, ehtiyojlar, his-hayajon, tuyg‘ulardan tashqari, bir qadar ahamiyatliroq bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, shaxs uchun qator qadriyatlar muhim. Bu qadriyatlarga misol qilib o‘z uyi — oilasi, mamlakati — vatani, mahallasi — qo‘ni-qo‘shnisi, o‘quv dargohi — sinfdoshlari yoki kursdoshlari, ishxonasi — hamkasblari kabilarni keltirish mumkin. Bu qadriyatlarga erishish, ularni saqlash va e’zozlash uning hayotining maqsadi, mazmuni bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs faqat o‘z-o‘zi bilan ovora emas. U atrofdagilar, hayot, mahalla, mamlakat, vatan haqida doimo o‘ylaydi, qayg‘uradi, g‘amxo‘rlik qiladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida oila, maktab, qo‘ni-qo‘shni, mahalla va do‘stlarning ta’siri katta.

Biz Abu Nasr Forobiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizni tilga olganimizda ularni buyuk shaxslar deb ulug‘lashimiz ham shaxs tushunchasiga e’tibor qaratishni talab etadi.




“Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi…”

Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”



Alisher Navoiy 1464–1469-yillarda Samarqandda bo‘lgan paytlarida, bir necha yil mashhur faqih (huquqshunos) Xoja Fazlulloh Abullays huzurida fiqh (huquq) ilmidan dars olgan.

Bu haqda shoir “Majolis un-nafois” asarida shunday yozadi: “Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o‘qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, “farzand” der erdilar”.



Burhoniddin Marg‘inoniyning “Kitob al-Hidoya” (qisqacha nomi “Hidoya” — “To‘g‘ri yo‘l”) kitobida oilaviy munosabatlarga oid, shuningdek, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas’uliyatlariga taalluqli juda ko‘p murakkab muammolar islomiy huquq nuqtayi nazaridan hal etib berilgan. Bu kitob fiqh ilmi bo‘yicha eng aniq, izchil, mukammal asar bo‘lib, undan bugungi kunda ham islom huquqshunosligi bo‘yicha nufuzli huquqiy manba — asosiy qo‘llanma sifatida foydalaniladi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Shaxsning jamiyatdagi o‘rni

Shaxsni jamiyatdan, jamiyatni shaxsdan ajratib bo‘lmaydi. Shaxs boshqalar bilan turli munosabatlarga kirishmasdan jamiyatda faoliyat olib bora olmaydi. Jamiyat va shaxs o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy va huquqiy munosabatlarga kirishishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar — Mehnat munosabatlari. Mulkiy munosabatlar v.b.

Ma’naviy munosabatlar — Bilim olishga oid munosabatlar. Tarixiy meros, ilmiy va texnik yutuqlardan foydalanish munosabatlari v.b.

Siyosiy munosabatlar — Davlat organlariga murojaat qilish bilan bog‘liq munosabatlar. Turli jamoat birlashmalari bilan bog‘liq munosabatlar v.b.

Huquqiy munosabatlar — Shartnomaviy munosabatlar.

Shaxs va davlat munosabatlarining huquqiy asoslari

Shaxs va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlar bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Davlat tomonidan mustahkamlab qo‘yilgan shaxsiy huquq va erkinliklar daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Davlatning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qilishdir. Jumladan, davlatning eng dastlabki vazifasi shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy darajasini oshirishga yordam berish, mamlakat xavfsizligini ta’minlash, tinchlikni mustahkamlash hisoblanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs


Huquqshunoslik fanida shaxs tushunchasi ikki ma’noda, ya’ni **jismoniy** va **yuridik shaxs** sifatida ifodalanadi.

Xo‘sh, jismoniy va yuridik shaxsning o‘zaro farqli jihatlari nimalardan iborat?

Javob topish uchun, avvalo, mazkur ikki tushunchaning ta’riflariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Qonun belgilaydi

Jismoniy shaxslar deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.



Alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Demak, yuridik shaxs deganda, asosan, *korxona, tashkilot* va *muassasalar* tushuniladi.

Yuridik shaxslarning quyidagi turlari mavjud:

• Tijorat tashkilotlari *(foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan korxona va tashkilotlar: sotuv bo‘limlari, quruvchi tashkilotlar, ulgurji savdo do‘konlari v.b.)*

• Notijorat tashkilotlar *(foyda olishni maqsad qilib olmagan muassasa va tashkilotlar: maktablar, shifoxonalar, xayriya jamg‘armalari v.b.)*

Xulosa qiling

Ma’lum bir axloqiy sifatlarga ega bo‘lmasdan, munosib inson bo‘lmay turib, ijtimoiy hayotda harakat qilib bo‘lmaydi.

Arastu (Aristotel)

Hamkorlikda bajaramiz

Berilgan vaziyatni diqqat bilan o‘qing va savollarga javob bering.



Alisher dars mashg‘uloti davomida ulgurji do‘konlar jismoniy shaxslar tomonidan yuritilishini, ular hech qanday tashkilot yoki korxona bo‘la olmasligini tushuntirib berdi. Ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar tashkilot emas, ular jismoniy shaxslar ekanligini isbotlashga harakat qildi. Sizningcha, Alisherning fikri to‘g‘rimi? Uning fikriga nima uchun qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik lozim?

Izlanishda davom eting

1. Shaxs va jamiyat o‘zaro qanday munosabatlarga kirishishi mumkin?
2. Siz qachon o‘zingizni yetuk shaxs deb hisoblay olasiz?
3. Shaxs uchun qadriyatlarning qanday ahamiyati bor?
4. Shaxs uchun e’tiborli bo‘lgan qadriyatlarga misollar keltiring.
5. Qanday tarixiy zotlarni “buyuk shaxslar” deb atashimiz mumkin? Siz bunday shaxslardan kimlarning nomlarini aytib bera olasiz?
6. Shaxsning shakllanishida davlatning qanday ahamiyati bor?
7. Shaxs davlat bilan qanday munosabatlarga kirishishi mumkin?
8. Jismoniy shaxs bir vaqtning o‘zida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘la oladimi? Nima uchun?

3-DARS. JAMIYAT

Agar qilmadi el himoyat senga,
O‘zingdin kerakdir shikoyat senga.

Alisher Navoiy

Faollashtiruvchi savollar



1. Rasmlarda ifodalangan qaysi tashkilot va uyushmalar bilan tanishsiz?
2. Ularning faoliyati to‘g‘risida o‘zingizning fikringizni bayon qilishga harakat qilib ko‘ring.
3. Ulardan qaysilari sizning hayotingizga bevosita ta’sir o‘tkaza oladi?
4. Hozirgi kundagi hayotni shu tashkilot va uyushmalarsiz tasavvur qilsa bo‘ladimi?
5. Bu tashkilot va uyushmalarni kim tuzgan deb o‘ylaysiz?
6. Mahalla sizning hayotingizda qanday o‘rin tutadi? Qanday tadbirlar mahalla bilan bamaslahat o‘tkaziladi?
7. “Jamiyat” va “jamoa” tushunchalari orasidagi farqni qanday izohlaysiz?
8. Rasmlarda tasvirlangan odamlarning barchasini jamiyat a’zolari deb atashimiz mumkinmi?
9. Rasmlardagi har xil toifadagi insonlarni nima va qanday vosita birlashtirib turadi deb o‘ylaysiz?
10. Barcha javoblarni umumlashtirib, jamiyat so‘ziga ta’rif bering.
11. Ta’rifingizni keyingi sahifada berilgan matn bilan solishtiring.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar orasida o‘ziga xos qoidalar mavjud bo‘lgan. Odamlar ilk bora to‘da, urug‘ jamoalari va qabilalarga birlashganlarida o‘zlariga yo‘lboshchi, urug‘ va qabila boshliqlarini tayinlaganlar. Mehnat qurollarining takomillashuv jarayoni mehnat taqsimotini keltirib chiqargan. Shuning uchun ham asosiy maqsadi va mashg‘uloti xususiy mulkchilik munosabatlari va mulkdorlar manfaatini muhofaza qilishdan iborat bo‘lgan kishilarning maxsus guruhlari vujudga kelgan.

Jamiyat odamlarning birgalikdagi hayotiy faoliyatlarida birlashgan muayyan murakkab tuzilmadir. Bu tuzilma unga kirgan a’zolar, ya’ni odamlarning oddiy guruhi yoki to‘plami emas, balki muayyan qoidalarga asosan birlashgan jamoasidir.

Tarixan uzoq rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan insoniyat turli ijtimoiy qoidalarga rioya qilib jamiyatga birlashib kelgan.


Ibtidoiy jamoadan bugungi sivilizatsiyalashgan jamiyatgacha bo‘lgan davrda insonlar muayyan hududda turli maqsadlarga ko‘ra birlashib kelishadi. Bu esa jamiyat tushunchasining mohiyatini anglatadi.

Yodda tuting

Jamiyat *— arabcha “jamoa”, “jamlangan”, “birlashgan” degan ma’nolarni bildiradi.*

Yodda tuting

Jamiyat *— muayyan hududda yashovchi, o‘z ehtiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilardan iborat jamoa.*



Xulosa qiling

“Inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatdagina ehtiyojlarini qondira olishi mumkin. Jamoa a’zolarining barchasi uchun majburiy-huquqiy qonunlar zarur bo‘ladi. Jamoaning barcha a’zolari mehnat bilan shug‘ullanmoqlari zarur”.

Abu Ali ibn Sino, “Al-ishorat va al-tanbihot”

Brainring daqiqa

1. “Inson — bu ijtimoiy mavjudot. U jamiyatsiz yashay olmaydi”. Ushbu fikrni asoslab bering.

2. Nima uchun Abu Ali ibn Sino o‘z asarida: “Jamoa a’zolarining barchasi uchun majburiy-huquqiy qonunlar zarur bo‘ladi”, degan fikrga urg‘u bergan? Mazkur fikrni tahlil qiling.

3. Quyidagi rasmlardagi insonlarni nima birlashtirib turadi?

4. Insoniyat tarixida odamlarning birgalikda yashashlari uchun qanday ehtiyojlar yuzaga kelgan deb o‘ylaysiz?

5. “Ko‘zi ojizlar jamiyati”, “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati” va “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati” tushunchalarining farqli jihatlarini yoritib bering.

6. Siz sinfdoshlaringiz va maktabingizdagi boshqa insonlar bilan qanday qoidalarga asoslanib do‘stlashasiz? Bu qoidalar qanday paydo bo‘lgan?











Fikrimizni tasdiqlaymiz

Jamiyat turli odamlar guruhining oddiy majmuyi yoki jamoasi emas. Jamiyat — murakkab ijtimoiy tuzilma. U — odamlarning o‘zaro munosabatlari, aloqalari mahsuli. Odamlarning hayoti, eng avvalo, ishlab chiqarish, turmush farovonligini ta’minlovchi iste’mol buyumlari yaratish va ularni o‘zaro ayirboshlash bilan bog‘liq muayyan mushtarak faoliyat zamirida kechadi.

Boshqacha aytganda, jamiyat biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar ustuvor bo‘lgan, yuksak shakllangan mushtarak birlikdir.

Har qanday jamoa ham jamiyat bo‘lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Jamiyat murakkab tirik organizm kabi muttasil o‘zgarib, rivojlanib turadi.

Jamiyatni tashkil qiluvchi odamlar ko‘p yoki kam, boy yoki kambag‘al, teng huquqli yoki turli huquqlarga ega, o‘xshash yoki har xil bo‘lishlaridan qat’i nazar, muayyan jamiyatning a’zolari hisoblanadilar. Ya’ni jamiyat insonsiz, inson esa jamiyatsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Izlanishda davom eting

1. O‘zingizning jamiyatdagi rolingizni kuchaytirish uchun kelajakda nimalarga erishishni istar edingiz?
2. “Jamiyatni boshqaruvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi” degan mulohazaga siz qanday qaraysiz? Fikringizni asoslang.
3. “Jamiyat — ijtimoiy munosabatlarning majmuyi, yig‘indisi” degan e’tirof zamirida nimalar yotibdi deb o‘ylaysiz?
4. “Jamiyatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar” mavzusida taqdimot tayyorlang.
5. Jamiyatni qanday rivojlantirish mumkin? Fikringizni asoslang.



4–5-DARS. DAVLAT

El nazaridan qolsang,
Davlating bo‘lg‘ay barbod!

Konfutsiy

Faollashtiruvchi savollar



1. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

a) Dastlabki davlatlar qachon paydo bo‘lgan edi?

b) Davlatning paydo bo‘lishi uchun jamiyatda qanday ehtiyojlar yuzaga kelgan edi?

d) Qadimgi davlatlar boshqaruvi qanday edi? Ularni kim boshqargan? Qadimgi Rim va Qadimgi Misr davlatlarining boshqaruvida qanday farqlar bor edi?

e) Nima uchun Qadimgi Rimda boshqaruv shakli “respublika” deyiladi va u qancha vaqt davom etgan?

f) Qadimgi Turonda qanday davlatlar bo‘lgan va ularni kim boshqargan?

2. Nima sababdan davlat tili, davlat chegarasi, Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi, Davlat madhiyasi, Davlat budjeti kabi birikmalar ishlatiladi?

3. Berilgan rasmlarga e’tibor qiling. Rasmlar qaysi davlatlar haqida ma’lumot beradi? Bu davlatlar qaysi davrga taalluqli? Ularning o‘ziga xosligini ayta olasizmi?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqshunoslik ilmida “davlat” va “jamiyat” tushunchalari mavjud. Ammo bu tushunchalar bir xil ma’noni anglatmaydi. Davlat — jamiyatning shakllangan siyosiy instituti. Jamiyat taraqqiyotining natijasida muayyan davrda vujudga kelgan.

Boshqacha qilib aytganda, jamiyat — davlatning “onasi”. Davlat esa jamiyat “farzandi”, uning mahsuli.

Shunday ekan, jamiyat keng tushuncha bo‘lib, davlat jamiyatning bir siyosiy instituti hisoblanadi. Jamiyat o‘z rivojida qanday bosqichlardan o‘tsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o‘zgarib, takomillashib boraveradi.

Jamiyat dastlab ijtimoiy hokimiyat, ya'ni barcha odamlar tomonidan boshqariladigan tuzilma bo'lgan.


Odamlar turli qabilalarga birlashib, o'sha qabilada yuzaga kelgan muhim masalalarni birgalikda hal qilgan. Qabila ishlarini boshqarishda hamma ishtirok etgan.

Bu xalq hokimiyatining ilk sodda ko'rinishi, ya'ni ibtidoiy demokratiya edi. Ishlab chiqarishning o'sishi, taraqqiyot natijasida asta-sekin jamiyatda siyosiy munosabatlar paydo bo'ldi.

Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan bo'lib, u o'zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan.

Dastlabki bosqichda davlat boshqaruvi, eng avvalo, majburlash usuliga asoslangan.

Davlatning asosiy belgilari — bu aholining hududiy asosga ko'ra birlashganligi, maxsus boshqaruv apparatining, huquq tizimining mavjudligi, soliq tizimiga egaligi va suverenitetidir. Agar biz davlatni qiyosiy tarzda murakkab inshootga o'xshatsak, yuqorida sanab o'tilgan belgilar davlatning ustunlari rolini bajaradi.



Yodda tuting

Davlat *— bu muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiradigan, umummajburiy normalar o'rnatadigan va suverenitetga ega bo'lgan, o'z fuqarolari, shuningdek, hududda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning manfaatlarini himoya qiladigan, boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni amalga oshiradigan mustaqil siyosiy tashkilot.*



Brainring daqiqa

1. Davlatning ibtidoiy urug‘chilik jamiyatidan ajralib turadigan belgilari nimalardan iborat?
2. Davlat paydo bo‘lgan jamiyatda odamlarning holati qanday bo‘ladi?
3. Davlat o‘z vazifalarini qaysi mablag‘lar hisobidan amalga oshiradi? Bu mablag‘lar qanday shakllantiriladi?
4. Davlat o‘zining vazifalarini nimaga tayanib amalga oshiradi?
5. Siz kundalik hayotingizda davlatning ta’sirini nimalarda sezasiz? Umuman, davlatsiz hayot qanday kechishi mumkinligini tasavvur qilib ko‘ring. Bu holda siz qanday burch va mas’uliyatlardan xoli bo‘lar edingiz yoki qanday muammolarga duch kelar edingiz?
6. “Davlat” bilan “jamiyat” bir xil tushunchalarmi yoki farqlimi? Bu tushunchalardan qaysi biri kengroq deb o‘ylaysiz? Nima uchun “Bizning davlatimiz” degan birikmani ishlatamiz?




Qonun belgilaydi

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2-modda

Xulosa qiling

Demak, davlatning asosiy maqsadi jamiyatga xizmat qilish, jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.



Eshitdimki, shohlardan birining qulog'i og'ir ekan. U: "Tilmochlik qiladiganlar mazlumlar so'zini menga to'g'ri yetkazmaydi va ularning holini bilmay, ishlariga muvofiq kelmaydigan biron buyruq berib qo'yishim mumkin", — deb o'ylab qoladi. Ana shunda u: "Zulm ko'rgan kishilar qizil kiyim kiysin, boshqa hech kim bunday rangdagi kiyim kiymasin, toki men ularni tanib olay", — deb buyruq beribdi. Bu shoh bir filga o'tirib, sahroda yurganida to'xtab, qizil kiyganlarni oldiga chaqirtirib olarkan. Ular ham baland ovozda o'z ahvollarini aytib berarkanlar va podshoh ularga javob qaytararkan. O'sha zamonda bunday ehtiyotkorlik shoh uchun biror-bir narsa qorong'i qolmasligi uchun qilinarkan.

Nizomulmulk, "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk")

Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va to'ldiring.

№	Jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari	Davlatning o'ziga xos xususiyatlari
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		

Fikrimizni tasdiqlaymiz

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi “inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek oliyjanob maqsad mujassam.

Ijtimoiy davlat — har bir inson uchun farovon turmush darajasi, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlarni yumshatishga qaratilgan davlat modelidir.

Qonun belgilaydi

O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1-modda

Izlanishda davom eting

1. Doirachalar ichida berilgan rasmlarni nomlang. Ularni “Ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan asoslab bering.
2. Rasmlarda aks etgan jarayonlar qanday huquq va erkinliklarni namoyon etadi?
3. Mazkur huquqlarni amalga oshirishda davlatning va sizning qanday rolingiz bor? Fikringizni izohlab bering.
4. “Ijtimoiy davlat” tushunchasini ifodalash uchun yana qanday misollar keltira olasiz?



6-DARS. DAVLAT FUNKSIYASI

Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

Amir Temur

Faollashtiruvchi savollar

1. Hech e’tibor berganmisiz, davlat ramzi, davlat tashkiloti, davlatlararo kelishuvlar, davlat tashrifi, davlat vazifasi degan so‘zlar nima uchun va qanday vaziyatlarda qo‘llaniladi?
2. Sizning oilangizda pensiya, nafaqa va davlatning boshqa turdagi moddiy ta’minotlarini oladiganlar bormi? Bu to‘lovlarni kim amalga oshiradi?
3. Kasalxonalardagi xarajatlarning bir qismini davlat amalga oshirishining sababini aytib bera olasizmi?
4. Shahringiz (qishlog‘ingiz) ko‘chalarida yurganingizda bu yo‘llarni qurish va ta’mirlashni kim bajarishi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmisiz? Nima sababdan bunday ishlar amalga oshiriladi deb o‘ylaysiz?
5. Sud, prokuratura va ichki ishlar organlari mavjud bo‘lmasa qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Siz shunday sharoitda yashashni istarmidingiz?
6. Kundalik hayotingizdan davlat bilan bog‘liq bo‘lgan holat va vaziyatlarga misollar keltiring.

Fikrimizni tasdiqlaymiz


Davlat jamiyatning talablariga mos ravishda rivojlanib boradi. U iqtisodiy va ma’naviy omillar asosida hokimiyatning mamlakatdagi tartibotini ta’minlaydigan bir butun tashkilot hisoblanadi.

Davlat funksiyalari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uning mazmun-mohiyati, jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy vazifasini yanada chuqurroq anglab olishga xizmat qiladi. Har qanday davlatning mohiyati, eng avvalo, uning faoliyatida, funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Davlatning faoliyat sohalari xilma-xil bo‘lganligini hisobga olib, uning faoliyati bosh yo‘nalishlarini alohida ajratish zarurati kelib chiqqan. Ana shu bosh yo‘nalishlarda davlat mohiyati mujassam bo‘ladi, amalga oshiriladi va rivoj topadi hamda ular davlatning mavjud bo‘lish tarzini ifoda etadi.

Davlatning mavjudligi, zarurligi uning funksiyalarida o‘z aksini topadi. Davlat o‘z faoliyatida bir qancha funksiyalar (faoliyat yo‘nalishlari)ni amalga oshiradi. Bu funksiyalarni, mamlakat ichida yoki tashqarisida amalga oshirilishidan kelib chiqib, tashqi va ichki funksiyalarga ajratish mumkin.

Ichki funksiyalar davlatning ichki vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, davlatning jamiyat hayoti ustidan rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini namoyon qiladi.

Tashqi funksiyalar esa xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida ishtirok etayotgan davlatlarning tashqi faoliyatdagi vazifalarini hal qilishi bilan bog‘liqdir.



Brainring daqiqa

1. Quyidagi tartibni daftaringizga chizing va berilgan rasmlarni davlat funksiyalari bilan bog‘lang. Fikringizni asoslang.

1 _____, 2_____, 3_____, 4_____, 5_____, 6_____, 7_____, 8_____, 9_____.


a



b


d


e


f


g


h


i


j

Hamkorlikda bajaramiz

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan ushbu qoidalarni o‘qing va bu qoidalarda davlatning qaysi funksiyalari aks etganligini aniqlang:

– Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

– O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

– O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

– Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

– O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi.

– Davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

2. “Davlatning mavjudligi, uning zarurligi davlatning funksiyalarida o‘z aksini topadi”.

Ushbu fikrni qanday tushundingiz?

3. “Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”.

Bunda davlatning qanday funksiyasi yoritilgan?

Izlanishda davom eting


1. O‘zingiz tuzgan shartli davlatda fuqarolaringiz uchun qanday sharoitlar yaratgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
2. Bu sharoitlarni yaratish uchun sizning davlatingiz qanday vazifalarni bajarishi kerak bo‘lar edi?
3. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qanday vositalar talab etiladi?
4. Davlatingizni qanday xalqaro tashkilotlarga a’zo qilgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
5. O‘zbekiston davlat funksiyalarini ilg‘or xorijiy davlatlar funksiyalari bilan qiyosiy tahlil qiling.

7–8-DARS. DAVLAT SHAKLLARI


Biror mamlakat ishlarining orqaga ketishiga sabab — tuzuklari-yu tartibotlarining susayishidandir.

Mahmud az-Zamaxshariy

Faollashtiruvchi savollar



1. “Monarxiya” va “respublika” atamalari bilan tanishmisiz? Bu atamalar nimani anglatishini bilasizmi?
2. Bu atamalar siz bilgan qaysi mamlakatlarning nomlari bilan qo‘shib ishlatiladi?
3. Tarix fanidan sizga ma’lum bo‘lgan monarxiya va respublika shaklidagi davlatlarni eslab, ularni sanab berishga harakat qilib ko‘ring.
4. O‘zbekistonga nisbatan yuqoridagi atamalarning qaysi biri mos keladi? Nima uchun bundayligi haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Agar o‘ylab ko‘rgan bo‘lsangiz, qanday xulosaga kelgansiz?
5. Bayroqlar tasviriga qarab qaysilari unitar va federativ davlatlarga tegishli ekanligini toping.
6. Rossiya Federatsiyasining nima uchun bunday nomlanishi to‘g‘risida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Bu savolga o‘z fikringizni bildirishga harakat qilib ko‘ring.
7. Vengriya, Latviya, Polsha kabi davlatlar nomlari atalganda nima uchun federatsiya jumlasi qo‘shilib aytilmasligining sababini aniqlashga harakat qiling.
8. O‘zbekiston Respublikasini siz qaysi davlatlar qatoriga qo‘shgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
9. Davlatlar tuzilishi jihatidan qanday bo‘lishi mumkin?
10. Qanday davlatda butun bir mamlakat miqyosida umumiy tizimga ega bo‘lgan qonunchilik, ijro va sud idoralari bo‘ladi?



Fikrimizni tasdiqlaymiz




Davlat shakllari deyilganda, davlatning boshqaruv, hududiy tuzilishi va siyosiy tartiboti jihatidan qanday shakllarga bo‘linishi tushuniladi.

Boshqaruv shakliga ko‘ra davlatlar **monarxiya** va **respublikaga** bo‘linadi.




Monarxiya — oliy hokimiyat yakka davlat boshlig‘ining qo‘lida bo‘lgan va bu hokimiyat avloddan avlodga meros qilib beriladigan davlat boshqaruv shakli.

Monarx davlatni yakka o‘zi boshqarishi, o‘z boshqaruvining natijasi uchun yuridik jihatdan javobgar bo‘lmasligi, uning hokimiyati muqaddas va ilohiy deb e’lon qilinishi, o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lishi **monarxiyaning asosiy belgilari** hisoblanadi.



Agar monarx o‘z davlatini boshqarishda uning boshqaruvi boshqa biron-bir idora bilan cheklanmasa, bunday monarxiya **mutlaq monarxiya** deyiladi (Qatar, O‘mon sultonligi). Cheklangan monarxiyada esa monarxning hukmronligi konstitutsiya yoki parlament bilan cheklanadi (Daniya, Norvegiya). Teokratik monarxiya tushunchasi davlat boshqaruvi va diniy hokimiyat monarx qo‘lida to‘planishini anglatadi (Vatikan). Noan’anaviy monarxiyada monarx maxsus saylov bilan hokimiyatga keladi (Masalan, Malayziya qiroli 5 yilga saylanadi).

Fikrimizni tasdiqlaymiz



Respublika davlat boshqaruvining shunday shakliki, unda hokimiyat oliy idoralari ma'lum muddatga saylanadi.

Respublika shaklidagi boshqaruvga ega bo'lgan davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

– hokimiyat oliy idoralarining saylab qo'yilishi;

– hokimiyat vakolatlari qat'iy ravishda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi;

– hokimiyat oliy idoralarining o'z qarorlarini saylangan muddati davomida qabul qilishi;

– fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok eta olishi.

Respublikalar **prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika** hamda **aralash shakldagi respublika** turlariga bo'linadi.

Prezidentlik respublikasida davlatni bevosita xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo'lgan prezident boshqaradi. U ijro hokimiyatining bevosita boshqaruvchisi hisoblanadi. Masalan, AQSH, Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston.

Parlamentar respublikada davlat boshlig'i saylanuvchi mansabdor shaxs bo'lib, asosan, parlament tomonidan saylanadi. Masalan, Germaniya, Italiya, Gretsiya.

Respublika shaklidagi boshqaruvning yana bir ko'rinishi **aralash boshqaruvdir**. Bunday boshqaruvda prezidentlik va parlamentar respublika elementlari aralashib ketgan bo'ladi. Masalan, Fransiya, Janubiy Koreya Respublikasi.

Brainring daqiqa



1. Tasavvuringizdagi shartli davlatning boshqaruv shaklini belgilang.

2. Sizningcha, shartli davlatingizga boshqaruvning qaysi shakli mos tushadi? Nima uchun?

3. Shartli davlatingizning davlat mexanizmi tarkibiga qanday davlat organlari kirishini tushuntirib bering.

4. Nima deb o'ylaysiz, boshqaruvning qaysi shaklida inson huquqlariga ko'proq e'tibor beriladi?

5. Boshqaruvning qaysi shaklida mamlakat iqtisodiyoti nisbatan rivojlanadi? Fikringizni asoslab bering.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Davlatning **tuzilish shakli** uning ma’muriy-hududiy tashkil etilishidir.

Oddiy (unitar)

Unitar davlatda butun bir mamlakat miqyosida umumiy tizimga ega bo‘lgan qonunchilik, ijro va sud idoralari bo‘ladi.

Yodda tuting

Unitar *— lotincha so‘z bo‘lib, “oddiy”, “yagona” degan ma’noni bildiradi.*

Unitar davlatning belgilari

– yagona konstitutsiya, yagona qonunchilik tizimi;
– yagona armiya;
– yagona pul birligi;
– qat’iy tartibdagi ma’muriy-hududiy tuzilishga egaligi;
– barcha ma’muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosati;
– yagona fuqarolik.



Murakkab (federativ, konfederativ)

Unitar davlatdan farqli o‘laroq, federativ davlat murakkab davlat tuzilmasi hisoblanadi.

Federativ davlat bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Ularning subyektlari “shtat”, “o‘lka”, “respublika”, “amirliklar” deb atalishi mumkin. Federatsiya subyektlari o‘z ma’muriy-hududiy bo‘linmalariga ega.

Ushbu davlatlar o‘zaro birlashganidan keyin federatsiya a’zolari hisoblanib, asosiy hokimiyat vakolatlari federatsiyaning markaziy organlariga beriladi.

Yodda tuting

Federativ davlat *— bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan murakkab, ittifoqdosh davlat.*

Federativ davlatning belgilari

– federatsiya hududi uning subyektlari hududi yig‘indisidan iborat bo‘ladi;
– oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat idoralariga tegishli bo‘ladi;
– federatsiyaning umumiy konstitutsiyasi uning subyektlari va markaziy hokimiyat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni belgilaydi;
– federatsiya subyektlarining har biri o‘zining alohida konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo‘ladi;
– oliy qonun chiqaruvchi idora, odatda, ikki palatali bo‘ladi. Bunda yuqori palata federatsiya a’zolarining manfaatlarini ifoda etadi.

Hozirda jahonda 20 tadan ortiq federativ davlat mavjud.

Davlatlar u yoki bu maqsadni ko‘zlab, o‘z suvereniteti va mustaqilligini saqlagan holda birlashishlari ham mumkin. U holda bunday ittifoq “konfederatsiya” deyiladi.

Konfederatsiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo‘lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo‘ladi. Lekin hozirgi davrda sof ko‘rinishdagi konfederativ davlat uchramaydi. Masalan, Shveysariya qadimda konfederativ davlat shaklida tashkil topgan bo‘lsa-da, bugungi kundagi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida federativ davlat sifatida e’tirof etiladi.

Brainring daqiqa

1. Tasavvuringizdagi shartli davlatning tuzilish shaklini belgilang.
2. Sinfdoshlaringiz bilan har xil tuzilish shaklidagi davlatlarni ishlab chiqing.
3. Tuzilish shakli jihatidan bir xil davlatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘zaro bir guruhga birlashib, davlat tuzilish shakli turlicha bo‘lgan uchta guruh tashkil qiling.
4. Har bir guruh o‘zi tanlagan tuzilish shaklining afzalliklarini aytib berishi lozim, boshqa guruhlar, aksincha, bu tuzilish shaklining kamchiliklarini aniqlashlari kerak.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari tizimiga “**siyosiy tartibot**” deyiladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat, ya’ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini aynan siyosiy tartibot belgilaydi.

Siyosiy tartibot **demokratik** va **nodemokratik** turlarga bo‘linadi.

Demokratik tartibot sharoitida insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari hurmat qilinadi. Fuqarolar davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etadilar. Demokratik hokimiyatning yagona manbai xalq irodasi hisoblanadi.

Demokratiya — yunoncha “xalq hokimiyati” degan ma’noni anglatadi.

Agar davlatda demokratik tartibot hukmron bo‘lsa, bu davlatda fuqarolar umume’tirof etilgan huquq va erkinliklardan to‘la foydalanadilar, davlat esa ularni har tomonlama kafolatlaydi va himoya qiladi.

DEMOKRATIK TARTIBOT BELGILARI



Demokratik davlatda g‘oyaviy va siyosiy pluralizm konstitutsiya tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruxsat etiladi. Siyosiy partiyalar esa oliy va mahalliy hokimiyat idoralariga deputatlarni saylashda ishtirok etish orqali o‘zlari, iloji boricha, ko‘proq a’zolarini hokimiyat idoralariga kiritishga harakat qiladilar. Demokratik saylovda g‘alaba qozongan siyosiy partiyalar hukumatni tuzish va o‘z siyosatini o‘tkazish huquqiga ega bo‘ladilar.

Demokratiyaga zid tartibot **“nodemokratik tartibot”** deb ataladi. Bunday tartibotda davlat idoralari demokratik tamoyillar va qoidalarga rioya etmaydilar. Aksincha, ularni doimo yoki tez-tez buzadilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunday siyosiy tartibotda fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi, qo‘pol ravishda buziladi, muxolifat ba’zan juda shafqatsizlik bilan bartaraf etiladi. Ba’zida esa parlament singari demokratik institutlar yo‘q qilinadi.

Nodemokratik tartibotlar ichida fashistik va totalitar tartibotlar haqida alohida to‘xtalib o‘tish joiz.

Fashistik tartibotda har qanday hukmron muxolifat yakson etiladi. Biron-bir irq-ning hukmronligi e’lon qilinadi. Va nihoyat, boshqa hududlarni bosib olishga harakat kuchayadi. 1933–1945-yillardagi fashistlar Germaniyasi va o‘sha davrdagi fashistlar Italiyasi bunga misol bo‘la oladi.

Yagona partiyaning hukmronligi, huquq va erkinliklarning poymol etilishi kabi salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan tartibot **“totalitar tartibot”** deyiladi. Totalitar tartibotda o‘zgacha fikrlarga qarshi kurashiladi, saylovchilarning saylovda muqobil deputatlarni saylash imkoniyatlari bo‘lmaydi. Totalitar davlat misoli sifatida sobiq Sovet Ittifoqini keltirish mumkin.

Brainring daqiqa

1. O‘zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Eron, Ispaniya, Braziliya, Qozog‘iston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Islandiya, Daniya, Saudiya Arabistoni, Chili, Kuba, Meksika, Kanada, Hindiston, Malayziya davlatlarining shakl jihatidan qanday turlarga bo‘linishini berilgan jadval asosida to‘ldiring.

Davlatlar	Boshqaruv shakli	Tuzilish shakli	Siyosiy tartiboti

2. Xaritada qaysi davlatlarning hududlari berilgan? Bu davlatlarning boshqaruv va tuzilish shakli haqida ma'lumot bering.

3. Siyosiy tartibot nima va uning asosiy ko'rinishlari qanday?

4. Demokratiyaning asosiy belgilarini tushuntirib bering.


5. Siyosiy tartibotning demokratik yoki nodemokratik ekanligini qanday omillar belgilab beradi?

6. Davlatlarning turli tuzilish shakliga ega ekanligining sababi nimada deb o'ylaysiz?

1



2



3



4



5



9-DARS. IJODIY FAOLIYAT

1. Quyida berilgan ta’riflarni javoblar bilan moslashtiring.

1-jadval

1	Davlat funksiyalari —	A	muayyan hududda yashovchi, o‘z ehtiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilardan iborat jamoa.
2	Jamiyat —	B	bu muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiradigan, umummajburiy normalar o‘rnatadigan mustaqil siyosiy tashkilot.
3	Davlat —	D	davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ularda davlatning ijtimoiy jihatlari ro‘yobga chiqariladi.
4	Shaxs —	E	foyda olishni maqsad qilib olmagan muassasa va tashkilotlar: maktablar, shifoxonalar, xayriya jamg‘armalari.
5	Notijorat tashkilotlar —	F	huquqiy munosabatlarning alohida ishtirokchisi bo‘lib, inson tushunchasining yuksak ko‘rinishidir.

2-jadval

1	Davlatning asosiy belgilari —	A	davlatning ichki vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, davlatning jamiyat hayoti ustidan rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini namoyon qiladi.
2	Ijtimoiy davlat —	B	monarx maxsus saylov bilan hokimiyatga keladigan boshqaruv shakli.
3	Ichki funksiyalar —	D	aholining hududiy asosga ko‘ra birlashganligi, maxsus boshqaruv apparatining, huquq tizimining mavjudligi, soliq tizimiga egaligi va suverenitetidir.
4	Noan’anaviy monarxiya —	E	davlat boshqaruvi va diniy hokimiyat monarx qo‘lida to‘planishini anglatadi.
5	Teokratik monarxiya —	F	har bir inson uchun farovon turmush darajasi, sifatli ta’lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo‘lish sharoiti mavjud bo‘lgan, ijtimoiy tafovutlarni yumshatishga qaratilgan davlat modelidir.

3-jadval

1	Siyosiy tartibot —	A	bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan murakkab, ittifoqdosh davlat.
2	Federativ davlat —	B	lotincha so‘z bo‘lib, “oddiy”, “yagona” degan ma’noni bildiradi.
3	Unitar —	D	oliy hokimiyat yakka davlat boshlig‘ining qo‘lida bo‘lgan va bu hokimiyat avloddan avlodga meros qilib beriladigan davlat boshqaruv shakli.
4	Monarxiya —	E	suvereniteti va mustaqilligini saqlab qolgan holda biror-bir maqsadga erishish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi.
5	Konfederatsiya —	F	davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va uslublari.

4-jadval

1	Prezidentlik respublikasi —	A	davlat boshlig‘i saylanuvchi mansabdor shaxs bo‘lib, asosan, parlament tomonidan saylanadi.
2	Parlamentar respublika —	B	insonning siyosiy va fuqarolik huquqlari hurmat qilinadi. Fuqarolar davlat hokimiyati idoralarini tuzishda va ularning faoliyatida faol ishtirok etadilar.
3	Demokratiya —	D	davlatni bevosita xalq saylaydigan va juda keng vakolatlarga ega bo‘lgan prezident boshqaradi.
4	Pluralizm —	E	davlat idoralari demokratik tamoyillar va qoidalarga rioya etmaydilar. Aksincha, ularni doimo yoki tez-tez buzadilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bunday siyosiy tartibotda fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etiladi, qo‘pol ravishda buziladi, muxolifat ba’zan juda shafqatsizlik bilan bartaraf etiladi. Ba’zida esa parlament singari demokratik institutlar yo‘q qilinadi.
5	Nodemokratik tartibot —	F	ijtimoiy hayotda fikrlar turli xilligi.

5-jadval

1	Boshqaruv shakliga ko‘ra davlatlar —		A	uning ma’muriy-hududiy tashkil etilishidir.
2	Davlat tuzilish shaklining turlari —		B	davlat boshqaruvining shunday shakliki, unda hokimiyat oliy idoralari ma’lum muddatga saylanadi.
3	Davlatning tuzilish shakli —		D	oddiy (unitar) va murakkab (federativ, konfederativ) bo‘lishi mumkin.
4	Respublika —		E	monarxiya va respublikaga bo‘linadi.
5	Davlat shakllari —		F	davlatning boshqaruv, hududiy tuzilishi va siyosiy tartiboti jihatidan qanday shakllarga bo‘linishi.

2. Quyida berilgan matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Olimlar tomonidan davlatning maqsad va funksiyalarini shakllantirish bo‘yicha “SMART” texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Bunda:

S (“specific” — “aniq”) davlatning maqsad va funksiyalari aniq bo‘lishi kerak;

M (“measurable” — “o‘lchovli”) davlatning maqsad va funksiyalari shunday ifodalanishi lozimki, unga erishish darajasini o‘lchash mumkin bo‘lsin;


A (“attainable” — “erishsa bo‘ladigan”) davlatning maqsad va funksiyalari uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi zarur;

R (“relevant” yoki “realistic” — “tegishli”, “hayotiy”) davlatning maqsad va funksiyalari hayotga yaqin bo‘lishi kerak, fantastik yoki rejasiz bo‘lmasligi lozim;

T (“timely” — “vaqt bilan o‘lchanadigan”) bunda aniq vaqt birligi bilan o‘lchash hamda ma’lum vaqt ichida tegishli natijalar bilan asosiy maqsadga erishish yo‘lidan borish nazarda tutiladi.

A. Qanday qilib davlat funksiyalarini ishlab chiqishda “SMART” texnologiyasidan foydalanish mumkin?

B. “SMART” texnologiyasi asosida takomillashtirilgan davlat funksiyalarini amalga tatbiq etishda qanday o‘ziga xoslik kuzatiladi deb o‘ylaysiz?



II BOB

HUQUQ

10-DARS. AXLOQ VA HUQUQ

Butun dunyoni qidirib, go‘zal xulqdan ko‘ra yaxshiroq layoqatni topmadim.

Jaloliddin Rumiy

Faollashtiruvchi savollar



1. Siz o‘z huquqlaringizni bilasizmi? Ularni sanab bering. Bu huquqlar qanday vujudga kelgan deb o‘ylaysiz?
2. Huquq insonga nima uchun beriladi?
3. Odob-axloq tushunchalarining huquq bilan qanday aloqasi bor? Misollar keltiring. Rasmlardan axloq va huquqqa oidlarini ajrating.
4. Do‘stlaringiz bilan biror-bir sport musobaqasida bellashsangiz, qanday qoidalarga rioya qilasiz? Ularga amal qilish shartmi? Nima uchun? Qoidalarga amal qilish huquqmi yoki majburiyatmi?
5. Maktabingizda o‘rnatilgan qoidalar hammaga majburiymi yoki o‘quvchi va o‘qituvchilarga alohida qoidalar mavjudmi?
6. Oilangizda rioya qilinadigan qoidalar qanday qilib paydo bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Ularga rioya etishingiz nazorat qilinadimi? Nima uchun?
7. Do‘stlaringiz bilan munosabatlaringizda ham muayyan qoidalarga amal qilasizmi? Nima uchun?
8. Yuqoridagi misollarning qaysi birida sizdan ko‘proq mas’uliyat talab qilinadi? Nima uchun?
9. Berilgan rasmlardan huquq, burch, majburiyatga oidlarini ajrating.
10. Rasmlar ichida qaysilari axloqiy qoidalarni ifoda etadi. Ham axloq, ham huquqqa oidlarini alohida ko‘rsating. Nima uchun bu qoidalar ham axloqqa, ham huquqqa tegishli?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquq dastlab axloqiy qarashlar, qadriyatlar negizida vujudga kelgan. Keyinchalik esa davlat tomonidan o‘rnatilgan yoki ma’qullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalarining tizimiga aylangan.

Huquq — bu davlat tomonidan belgilanadigan, muhofaza qilinadigan, o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig‘indisidir.

Axloq normalari esa butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Bu normalar doimiy ravishda kishilar amaliy faoliyati, ularning o‘zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

Huquq davlat tomonidan ta’minlanadi, muhofaza etiladi va himoya qilinadi. Huquq normalarining mazmuni umummajburiy mohiyatga ega.

Axloq jamoatchilik fikri, kuchiga tayanadi. Axloq qoidalariga amal qilmagan shaxslarga nisbatan qanday jazo qo‘llanilishini jamiyatning o‘zi hal qiladi. Bunday chora ba’zan huquqiy jazodan ham qattiqroq va ta’sirliroq bo‘lishi mumkin.

Huquq davlatning maxsus yuridik hujjatlari (masalan, qonunlar, farmonlar, qarorlar)da mustahkamlanadi.

Axloq normalari esa bunday aniq ifodaga ega bo‘lmaydi. Axloq qoidalari jamiyat turli qatlamlari va guruhlarida muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida vujudga keladi.

Yodda tuting

Axloq *— kishining jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga soluvchi talab va qoidalar yig‘indisi.*

Huquqdan farqli o‘laroq, axloq jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo‘ladi.

Hamkorlikda bajaramiz

Berilgan vaziyatlarni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:

– Vaziyat ishtirokchilari axloq va huquq qoidalarini buzdimi?

– Ular qanday axloq qoidalarini buzdi deb o‘ylaysiz?

– Siz shunday vaziyatlarga duch kelganmisiz?

1. Anvar ertalab uydan chiqib, avtobus bekatiga yo‘l oldi. Negadir kayfiyati yo‘qroq edi, kecha dars tayyorlamagani uchunmi, xayoli parishon bo‘lib, hech kimga salom bermadi, avtobusda tepasida turgan yoshi kattaroq ayolga ham joy bo‘shatmadi. Avtobus chiptasini ham olmay tushib ketdi. Yaxshiyamki, nazoratchi tekshirmadi.

2. Gulnoza va Aziza anchadan beri betob bo‘lib maktabga kela olmayotgan Zamiraning holidan xabar olish uchun kasalxonaga borishni rejalashtirishdi.


Ular ertalab soat 8:00 da bekatda uchrashishga kelishib olishdi. Aziza Gulnozaga kech qolmasdan kelishini tayinlab, soat 10:00 da imtihoni borligini ta'kidladi. Aziza kelishilgan joyga 5 daqiqa avval yetib keldi. Ammo 30 daqiqa o'tsa hamki, Gulnozadan darak bo'lmadi. Qo'l telefoniga ham javob bermadi.

3. Zokirjon do'kondan olgan chekini ko'rdi-yu, darhol ortiga qaytdi. Sotuvchi shirinlik narxini kassa chekiga ikki barobar ko'p kiritgan ekan. Zokirjon chekni uzatdi va muammoni aytdi. Sotuvchi o'z xatosini tan olmadi. "Siz o'sha zahoti murojaat qilishingiz kerak edi. Oradan 20 daqiqa o'tib ketdi", — dedi qo'pollik bilan.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

"Huquq" atamasi ikki — obyektiv hamda subyektiv huquq ma'nosida qo'llaniladi. **Obyektiv huquq** — huquq normalarining yig'indisi. **Subyektiv huquq** esa ma'lum bir shaxs yoki guruhga tegishli bo'lgan huquq. Misol uchun, kimningdir uy-joyga bo'lgan yoki biror-bir mulkka nisbatan bo'lgan huquqi. Subyektiv huquq obyektiv huquqsiz mavjud bo'lmaydi. Huquqning o'zi esa davlat bilan uzviy bog'liqdir. Ular bir-birisiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston hududida ming yillar davomida milliy axloq normalari taraqqiy etib borgan. Davlatlar vujudga kelishi bilan axloq normalari huquq shaklida ifodalana boshlangan. Chunki axloq normalarini jamiyat o'rnatsa, huquq normalarini davlatning vakolatli organlari belgilab beradi. Lekin huquq normalarining shakllanishi axloq normalarini asos qilib oladi. Misol uchun, turkiy xalqlarda ot o'g'irligida qo'lga tushgan shaxs jamiyat a'zolari tomonidan qatl etilgan. Turk xoqonligi esa o'z to'ra-tuzuklari bilan ot o'g'irligi uchun qatl etish jazosini qat'iy belgilab, huquq normasi darajasiga ko'targan.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Aholining aksariyat qismining qarashlari va tushunchalari ham axloq, ham huquqda aks etadi.

Axloq va huquq o‘rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardir:

- huquq davlat tomonidan belgilangan bo‘ladi, axloq (ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik kabilar) esa davlatning yordamisiz o‘z-o‘zidan shakllanadi;
- axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini (do‘stlik, o‘rtoqlik va hatto muhabbatni ham) tartibga soladi. Huquq esa muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan;
- huquq davlat irodasini, axloq esa jamiyat a’zolarining fikri, dunyoqarashi hamda insoniy fazilat va tushunchalarini aks ettiradi;
- huquqda xatti-harakat yoki harakatsizlikni baholash mezoni “qonuniy-noqonuniy” bo‘lsa, axloqda esa “yaxshi-yomon”dan iborat;
- huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoatchilik fikri orqali qaror topadi;
- huquq normativ-huquqiy hujjatlarda aniq ko‘rinishga ega;
- huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jazo tayinlash tartibi huquq normalari bilan qat’iy belgilab qo‘yiladi;
- axloqqa zid harakat uchun javobgarlikka aniq bir jazo chorasi ko‘zda tutilmaydi.

Tarixga nazar

Turk xoqonligida shaxslarning huquq va majburiyatlari, jinoyat va jazoni belgilash to‘ra-tuzuklar (qoidalar) asosida amalga oshirilgan. To‘ra-tuzuklar so‘zi “qonun” ma’nosida ilk bor Xitoy solnomalarida uchraydi. Shuningdek, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida Turk xoqonligining qonunlari sifatida tilga olinadi.

Mamlakatimiz tarixining keyingi davrlarida, xususan, islom dini qoidalarida ham inson huquqlari alohida e’tirof etilgan.

Mo‘g‘ul ko‘chmanchilarining huquqiy odatlari ham qadimgi turkiy to‘ra-tuzuklar asosida belgilangan. Mo‘g‘ul davlatining qonun-qoidalari “Yasoq qonunlari”da, Temuriylar saltanati tartib-intizomlari esa “Temur tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Tasavvuringizdagi shartli davlat fuqarolari uchun “Axloq kodeksi”ni tuzing.
2. Bu kodeksda keltirilgan qoidalarni buzganlik uchun qanday jazoni nazarda tutgan bo‘lar edingiz?
3. Bu qoidalar qay darajada “huquq” ta’rifiga mos keladi va ularda huquqning qanday belgilari mavjud?
4. Siz tuzgan “Axloq kodeksi”dagi qoidalar qaysi qonunlarimizga mos keladi? Nima uchun bunday qoidalarni joriy etmoqchisiz? Siz taklif etayotgan qoidalar milliy qonunchiligimizda o‘z ifodasini topganmi?

Izlanishda davom eting

Quyidagilardan qay biri huquq yoki axloq normalari bilan tartibga solinishini tushuntirib bering.

№	Holatlar	Huquq	Axloq
1.	Do‘stining sirlarini yashirish		
2.	Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash		
3.	Kattalarga hurmat ko‘rsatish		
4.	Saylovlarda ishtirok etish		
5.	Onaga gul sovg‘a qilish		
6.	Vatanni sevish		
7.	Shaxsni tasdiqlovchi hujjatni olish		
8.	O‘qituvchi va murabbiylar kunini nishonlash		
9.	Tayyorlov kurslariga borish		
10.	Sport bilan shug‘ullanish		
11.	Salom berish		
12.	Do‘kondan mahsulotlarni sotib olish		
13.	Tibbiy xizmatdan foydalanish		
14.	Ta’lim olish		
15.	Jamoat transportida keksalarga joy berish		


11–12-DARS. HUQUQ MANBALARI

Yaxshilar mas’uliyat bilan ish qilishlari uchun qonunlarga muhtoj bo‘lmaydilar,
Yomonlar qonunlarga chap berish uchun yo‘l topadilar.

Aflotun

Faollashtiruvchi savollar

1. Xalqaro shartnoma va oldi-sotdi bitimi tushunchalari bir-biridan qanday farq qiladi?
2. Umumxalq xayriya hashari huquqiy odat sifatida huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladimi?
3. Quyidagi piramidada qanday tizim aks ettirilgan? Bu normativ-huquqiy hujjatlar qanday ahamiyatga ega? Nega ular piramida ko‘rinishida tasvirlangan deb o‘ylaysiz?




Fikrimizni tasdiqlaymiz

“Manba” so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, “boshlanish”, “ibtido” degan ma’nolarni anglatadi.

Huquq manbasi muayyan rasmiy bir shaklga ega bo‘lishi uchun, albatta, bunday manba vakolatli davlat organlari tomonidan e’tirof etilishi lozim.

Huquq manbasi — huquqning ifoda etilish shakli. Huquq manbasi o‘zida huquq normasining paydo bo‘lishi va amal qilinishiga imkon beruvchi manbalarni ifodalaydi.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar tizimida odat va huquqiy odatni farqlash lozim. Kundalik turmushdagi barcha odatiy qoidalar ham huquqiy odat sifatida shakllanavermaydi.

Huquqiy odat — uzoq davr mobaynida amalda bo‘lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan xulq-atvor qoidasidir. Dastlab jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar axloq, odat, an’ana, rasm-rusum kabi turli xil normalar asosida tartibga solingan.

Odat normalari asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquq manbalari haqida gapirilganida “yuridik pretsedent” degan tushunchaga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Bu tushuncha Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va Avstraliya huquq tizimida uchraydi.

Yuridik pretsedent sudning umummajburiy ahamiyatga ega bo‘lgan aniq bir ish bo‘yicha qaroridir. Yuridik pretsedentning o‘ziga xos jihati shundaki, u qabul qilingach, o‘sha masala bo‘yicha umummajburiy qoidaga aylanadi. Yuridik pretsedent O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida qo‘llanilmaydi.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Sizning qanday huquqlaringiz bor? Kun davomida o‘zingiz amal qiladigan 5 ta qoidani daftaringizga yozing. Qoidalarni partadosh do‘stingiz bilan muhokama qiling. Bir-biringiznikiga o‘xshashlarini aniqlang. Jami nechta umumiy qoida bo‘ldi? Bu qoidalarni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Sinfdoshlar bilan umumiy va o‘ziga xos bo‘lgan qoidalarni ajrating. Taklif qilingan qoidalardan nechtasi barcha o‘quvchilar tomonidan e’tirof etildi? Ularning qaysilari qonun darajasida qabul qilingan deb o‘ylaysiz?

Bu qoidalarga amal qilmaslik qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

2. Quyidagi matnni o‘qing. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, berilgan matnni tarixiy misollar asosida sharhlang. “*Ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda odat normalaridan keng foydalanilgan, keyinroq odat o‘z o‘rnini huquqqa bo‘shatib bera boshlagan”.*

Yodda tuting

“Pretsedent” so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “avvalgisi”, “oldingisi” degan ma’nolarni anglatadi.

Yuridik pretsedent sud yoki ma’muriy organning qaroridir. Bu qaror kelgusida barcha shunga o‘xshash ishlarni ko‘rib chiqish va hal qilish uchun asos bo‘ladigan namuna qoida hisoblanadi.

Xulosa qiling

Sud pretsedentiga misol sifatida “Donald Makferson “Buick”ka qarshi” sud ishini keltirib o‘tish mumkin. 1916-yilda Nyu York shahrida avtohalokat sodir bo‘ldi. Haydovchi Donald Makferson “Buick” avtomobilida halokatga uchrab, avtomobil ag‘darilib tushdi.

Haydovchi Nyu York sudiga murojaat yo‘llab, avtomobilning nuqsonli g‘ildiragi tufayli tekis yo‘lda unga jarohat yetganligini da’vo qildi.

Nyu York sudi mashina dillerlik xizmati orqali avtodo‘kondan sotib olinganligiga qaramasdan, avtomobil ishlab chiqaruvchisiga jarima jazosini qo‘llash hamda yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida qaror chiqardi.

Mazkur sud qarori bugungi kunga qadar shunga o‘xshash sud ishlarini hal etishda asosiy huquq manbasi bo‘lib kelmoqda.

Brainring daqiqa

Quyidagi hujjatlarga e’tibor bering. Ular qanday huquq manbasi ekanligini asoslang.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi.

Qonunlar va qonunosti hujjatlari, eng avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy vositalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, qo‘mitalar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

Brainring daqiqa

Normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi xususiyatlari bilan huquq manbalarining boshqa turlaridan farqlanadi:

1. normativ-huquqiy hujjatlar vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinib, bekor qilinadi;
2. normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy qoidaning mazmunini, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini aniq belgilaydi;
3. normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar bajarilmagan yoki buzilgan taqdirda davlatning majburlov kuchi bilan tartibga solinadi.

Qonun belgilaydi

Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni, 3-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Normativ-huquqiy hujjatlar **qonun** va **qonunosti hujjatlariga** bo‘linadi. Normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlar asosiy o‘rin tutadi. Qonun huquqning eng muhim shakli bo‘lib, unda huquqning hamma xususiyatlari qamrab olinadi. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim, barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi, ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi ham mumkin.

Brainring daqiqa

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari quyidagicha tuziladi:

– O‘zbekiston Respublikasi nomidan — davlatlararo shartnomalar;
– O‘zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan — hukumatlararo shartnomalar;
– Davlat organlari nomidan o‘z vakolatlari doirasida — idoralararo shartnomalar.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Xalqaro shartnoma — ikki yoki undan ortiq davlatlar o‘rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o‘rnatadigan, o‘zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitim hisoblanadi. **Shartnomalar** — ma’lum bir normani o‘rnatish yoki ta’sis qilish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Xalqaro shartnomalarning nomlari turlicha bo‘lib, jumladan, shartnoma, bitim, konvensiya, pakt, deklaratsiya, memorandum, statut, protokol, ustav, bayonot va boshqa nomlar bilan atalishi mumkin.

Xalqaro shartnomalarning turlari



Ikki tomonlama shartnomalar



Ko‘p tomonlama shartnomalar

Izlanishda davom eting

1. Huquq manbasi nima?
2. Huquqiy odat tushunchasi nima?
3. Yuridik pretsedent qaysi davlatlarda amal qiladi?
4. Normativ-huquqiy hujjatlar nima va ularning qanday turlari mavjud?
5. Qonun va qonunosti hujjatlariga qanday ehtiyoj mavjud deb o‘ylaysiz?
6. Bugungi kunda jamiyatda qaysi sohalarni tartibga solish uchun qonunlarga ehtiyoj mavjud?

Quyida keltirilgan misollar huquq manbasining qaysi turiga mansubligini tahlil eting.

№	Misollar	Huquqiy odat	Yuridik pretsedent	Normativ-huquqiy hujjat	Xalqaro shartnoma
1.	“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonun				
2.	Tadbirkorlik faoliyatidagi ish muomalasi odati				
3.	“Bola huquqlari to‘g‘risi-da”gi konvensiya				
4.	“Miranda” qoidalari bo‘yicha AQSH Oliy su-dining qarori				

13-DARS. HUQUQ NORMASI

Haq olinur, berilmas.

Mahmudxo'ja Behbudiy

Faollashtiruvchi savollar


Quyidagi Hammurapi qonunlari haqidagi ma'lumotlarni o'qing va savollarga javob bering.

Qadimgi Bobil podshohi Hammurapi dunyo tarixidagi ilk yozma qonunlarni joriy qilgan. Bu dunyodagi eng qadimgi huquqiy yodgorliklardan biri bo'lib, qonunlarning asosiy matni konus shaklidagi qora toshga o'yib yozilgan. Qonunlar qadimgi Akkad tilida mixxat yozuvi ko'rinishida saqlanib qolgan bo'lib, Eron hududidagi qadimiy Suza shahrini qazish jarayonida fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan.



Qonunlar sud ishlarini yuritish, mulkning turli shakllari, nikoh va oila, shuningdek, jinoyat-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Qonunlar 282 banddan iborat.

Mazkur qonunlarning katta qismida jinoyatlarning tavsifi va ularga belgilangan jazolar qayd etilgan. Misol uchun, qonunlarning 195-bandiga ko'ra, "agar o'g'il otasiga qo'l ko'targan bo'lsa, uning qo'li kesib tashlansin", degan normani uchratish mumkin.



1. Nima deb o'ylaysiz, davlat huquq normalarini qanday hujjatlarda qabul qiladi?
2. O'zbekiston hududidagi qadimiy huquqiy hujjatlarda qanday huquq normalari aks ettirilgan deb o'ylaysiz?
3. Ota-onani hurmat qilish va ularga g'amxo'r bo'lish qaysi hujjatlarda belgilangan?
4. Agar huquq normasi davlat tomonidan muhofaza qilinmasa, qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin?
5. Huquq normasida jazo choralarini belgilamaslik mumkinmi? Nima uchun?
6. Huquq normasi qanday tarkibiy elementlardan iborat deb o'ylaysiz?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquq normasi huquqshunoslik fanining fundamental tushunchalaridan biri hisoblanadi. Huquq normasi huquq ijodkorligi faoliyatining natijasi bo‘lib, faqat vakolatli davlat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda qabul qilinadi.

Huquq normasi — bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki elementi. Huquqiy normalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi, davlat tomonidan o‘rnatiladigan va muhofaza qilinadigan, bajarilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun umummajburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.

Yodda tuting

*“**Norma**” so‘zi lotinchadan tarjima qilinganda “qoida”, “namuna” ma’nosini anglatadi.*

Yodda tuting

Huquq normasi tuzilishiga ko‘ra bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi tarkibiy qism (element)lardan iborat:
1) gipoteza;
2) dispozitsiya;
3) sanksiya.

Jamiyatda qaror topadigan yangi munosabatlar ularni tartibga solishga qaratilgan tegishli huquq normalarining yaratilishiga turtki beradi. O‘z navbatida, bu huquq normalari yangi munosabatlarni qonuniy jihatdan mustahkamlaydi, muhofaza qiladi va rivojlantiradi.

Hamkorlikda bajaramiz

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasida keltirilgan quyidagi huquq normasida qanday tarkibiy elemetlar (gipoteza, dispozitsiya, sanksiya) mavjudligini aniqlang.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zosi bo‘lishi mumkin.

Brainring daqiqa

“Gipoteza” yunoncha so‘z bo‘lib, “faraz qilish”, “fikr yuritish” degan ma’noni anglatadi, unda huquq normasi harakatga kelishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar bayon etiladi.

Dispozitsiyada xulq-atvor qoidalarining o‘zi ifodalanib, huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari hamda huquqiy tartib belgilab beriladi. “Dispozitsiya” lotincha so‘z bo‘lib, “joylashuv” degan ma’noni anglatadi.

“Sanksiya” so‘zi ham lotin tilidan olingan bo‘lib, “majburiy chora” degan ma’noni bildiradi.

Sanksiyada huquq normalari bajarilmagani uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan majburlov chorasi bayon etiladi.

Hamkorlikda bajaramiz

Gipotezaga misol	Dispozitsiyaga misol	Sanksiyaga misol
Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.	**O‘g‘rilik, ya’ni o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish** ...	Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi **bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi**.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 80-modda	**O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 169-modda**	**O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 128^1-modda**
Ushbu huquq normasida ikkita shart, ya’ni voyaga yetish va mehnatga layoqatli farzand bo‘lish sharti bajarilishi bilan ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish normasi belgilangan.	Bunda norma dispozitsiyasi hammaga tushunarli bo‘lishi uchun ma’lum bir ma’noda, qisqa shaklda izoh berilgan. Bunda xulq-atvor qoidasi aniq belgilanganligini ko‘rish mumkin.	Mazkur huquq normasida aniq bitta majburlov chorasi ko‘rsatilgan. Ya’ni ta’sir chorasi sifatida jarima qo‘llanilishi sanksiya hisoblanadi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquq normasi tarkibiy elementlarining barchasi (gipoteza, dispozitsiya va sanksiya) bitta huquq normasida kelmasligi mumkin. Ayrim qonun hujjatlarida faqat ikkitasi yoki bittasi keladigan holatlar ham uchraydi. Unutmaslik lozimki, huquq normasining bitta tarkibiy elementining mavjudligi ham yetarli hisoblanadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga ko‘ra, fuqarolar davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Mazkur huquq normasida bitta dispozitsiya bo‘lib, unda fuqarolarning davlat xizmatiga ishga kirishi uchun teng huquq mavjudligi ifoda etilmoqda.

Huquq normasining quyidagi belgilari mavjud:

– davlat (xalq)ning irodasini aks ettiradi;
– davlat tomonidan normativ hujjatlarda ifodalanadi;
– davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo‘lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanadi;
– jamiyat va davlat nuqtayi nazaridan eng muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquq normalari, ularda mustahkamlangan qoidalar xususiyatidan kelib chiqib, quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Huquq va vakolat beruvchi normalar


Huquq subyektiga qanday harakatlarni sodir etish mumkinligini ko‘rsatuvchi normalar.

2. Majburiyat yuklovchi normalar

Qanday harakatlarni sodir etish lozimligini ko‘rsatuvchi normalar.

3. Man qiluvchi normalar

Huquq subyektiga muayyan xatti-harakatlarni sodir etishni man qilib qo‘yuvchi normalar.



Izlanishda davom eting

1. Gipoteza va dispozitsiyaning o‘zaro farqlarini tushuntirib bering.
2. Huquq normasi faqat sanksiyadan iborat bo‘lishi mumkinmi? Misol keltiring.
3. Jismoniy shaxslar o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomalari huquq normalaridan tashkil topadimi?
4. Xalqaro shartnomalar huquq normalaridan iborat bo‘ladimi?
5. Berilgan rasmlardagi vaziyatlarga baho bering. Shaxslarning qanday huquqlari mavjud? Ularning qaysi huquqlari buzilmoqda? Qaysi rasmlardagi holatga nisbatan majburiy chora qo‘llanilishi mumkin deb o‘ylaysiz?

1


2


3


4


5


6


7


8


14-DARS. HUQUQ TARMOQLARI (SOHALARI)

Huquq — ezgulik va adolatlilik san'atidir.

Ulpian

Faollashtiruvchi savollar

1. Rasmlarga e'tibor bering. 1–6-rasmlarda tasvirlangan insonlar turli huquq va erkinliklarga ega. Mazkur insonlarning qanday huquqlari bor deb o'ylaysiz?



2. Bu huquqlarni ta'minlash uchun qabul qilingan qonun hujjatlari to'g'risida eshitganmisiz?

3. 1-rasmdagi o'quvchilar bilan 3-rasmdagi o'qituvchi ayol huquqlari o'rtasida qanday umumiylik va qanday farqlar bor deb o'ylaysiz? 1-, 2-, va 6-rasmdagilarning-chi? 3-, 4-, 5- va 6-rasmdagilarning-chi?

4. 7-rasmda tasvirlangan tabiatning, 8-rasmda tasvirlangan mushukning ham huquqlari bormi? Bu huquqlar nimalarda ifodalanishi mumkin deb o'ylaysiz?

5. Huquqlar majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkinmi? Javobingizni asoslang.

6. Sizningcha, huquq tizimini tarmoqlarga ajratishdan qanday maqsad ko'zlanadi?

Xulosa qiling

Huquq sohasi mavzusini yaxshi tushunish uchun, avvalo, huquq tizimi masalasiga oydinlik kiritish lozim. Chunki huquq sohasi huquq tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Har qanday jamiyatga shu jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun ma'lum bir huquq tizimi zarur. Bu tizim turli-tuman, lekin o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan huquq normalari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Qaysi huquq normasini qaysi obyektga nisbatan ishlatish kerakligini aniqlashtirish uchun ularni turlarga ajratish lozim. Huquq tizimi, avvalambor, "huquq tarmoqlari" ("sohalari") deb nomlanuvchi alohida tarmoqlarga ajratiladi.


Bunda davlatdagi ijtimoiy munosabatlarning xilmaxilligi e'tiborga olinadi.

Ijtimoiy munosabatlarning mehnat munosabatlari, ijtimoiy ta'minot, moliya va h.k. kabi turlari alohida huquqiy normalar orqali tartibga solinadi.

Yodda tuting

Huquq tizimi — *bu huquqning ichki tuzilishi bo'lib, huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat'iy izchillikda joylashgan tartibidir.*

O'zbekiston Respublikasi huquq tizimini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:



Fikrimizni tasdiqlaymiz

“Tizim” so‘zi o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa-hodisalar birligi, majmuyini anglatadi. Huquq normalarining rivojlanishi natijasida huquq institutlari vujudga keladi. Huquq institutlari, o‘z navbatida, huquq sohalariga birlashadi. Natijada barcha tarkibiy qismlar birgalikda huquq tizimini tashkil etadi. Huquq institutlari deganda oliy ta’lim muassasalari yoki boshqa tashkilotlar emas, tegishli huquq sohalarining ichki tarkibiy qismlari tushuniladi.

Huquq institutlari — bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari guruhi.

Masalan, **fuqarolik huquqi** sohasiga mulk huquqi institutini misol qilib keltirish mumkin. Mulk huquqi instituti mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning mustaqil guruhini tashkil etadi.

Jinoyat huquqi sohasiga davlatga qarshi jinoyatlar instituti misol bo‘la oladi. U davlatga qarshi jinoyat qilishdan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning mustaqil guruhini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy huquq sohasi — prezidentlik, fuqarolarning huquq va erkinliklari instituti, **jinoyat huquqi sohasi** — javobgarlik instituti, **oila huquqi** — nikoh instituti va boshqalarni qamrab oladi.

Huquq sohasi — bu ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi huquq normalari va huquq institutlarining yig‘indisi. Masalan, moliyaviy munosabatlar moliya huquqi sohasi bilan, mehnat munosabatlari mehnat huquqi sohasi bilan, yer bilan bog‘liq munosabatlar yer huquqi sohasi bilan tartibga solinadi va hokazo.


O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi ko‘plab sohalardan tashkil topgan bo‘lib, bu sohalarni shartli ravishda **ichki** va **xalqaro huquq** sohalariga ajratish qabul qilingan.

Har bir huquq o‘z sohasiga tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning qoidalarini bayon etadi. Mulkiy huquqlarni fuqarolik huquqi belgilab bersa, mulkiy nizolar kelib chiqqanda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilish tartibi, ishni sud tomonidan ko‘rib chiqish jarayonini fuqarolik protsessual huquqi tartibga soladi.

Yodda tuting

Milliy huquq sohalari ikki asosiy guruhga ajratiladi. Ular moddiy va protsessual huquq sohalari hisoblanadi.

Moddiy huquq *huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini,* ***protsessual huquq*** *sohasi huquq va majburiyatlarni amalga oshirish tartibini belgilab beradi.*



Moddiy huquq sohalari va ularni tartibga solish doirasi quyidagilar:



Mehnat huquqi

ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga soladi.



Fuqarolik huquqi

mulk bilan aloqador hamda nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.



Oila huquqi

oila va nikoh bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.



Ekologiya huquqi

tabiatni muhofaza qilish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.



Jinoyat huquqi

qanday xatti-harakatlar jinoyat ekanligini belgilaydi, ularni sodir etganlar qanday jazolanishini va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Brainring daqiqa

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga ko‘ra, protsessual huquq sohasi to‘rtta guruhga ajratiladi:

- **Fuqarolik protsessual huquqi** normalari sudlarning fuqarolik, oilaviy, mehnat, yer bilan bog‘liq va moliyaviy munosabatlar kabi bir qator sohalardagi faoliyatini tartibga soladi. Fuqarolik protsessual huquqi ishtirokchilari, asosan, jismoniy shaxslar hisoblanadi.
- **Iqtisodiy protsessual huquqda** ham yer, agrar, moliyaviy, ekologiya sohalariga oid huquqiy munosabatlarni sudlar orqali tartibga solish ko‘zda tutilgan. Ammo unda, asosan, yuridik shaxslar o‘rtasidagi nizolarni sud tartibida hal qilish nazarda tutiladi.
- **Jinoyat-protsessual huquqi** sudlov, tergov, prokuratura organlarining jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish faoliyatini tartibga soladi.
- **Ma’muriy protsessual huquq** davlat boshqaruvi sohasidagi alohida ko‘rsatilgan ishlarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ayrim boshqa subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi soha.

Hamkorlikda bajaramiz

1. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi munosabati huquqning qaysi sohasi bilan tartibga solinadi?
2. Insonlarning biror davlat fuqarosi bo‘lishi huquqning qaysi sohasi bilan tartibga solinadi?
3. Mamlakat rahbarlarining uchrashuvlari hamda vakolatxonalar ochish bilan bog‘liq munosabatlar qaysi huquq sohasi bilan tartibga solinadi?

Fikrimizni tasdiqlaymiz



Xalqaro huquqning fan sifatidagi rivojlanishiga golland huquqshunosi, davlat arbobi va adib **Hyugo Grotiyus** katta hissa qo‘shgan.

U “Urush va tinchlik huquqi” asarida xalqaro huquqning asoslari va prinsiplarini ishlab chiqqan.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro huquq tarixi davlatlarning rivojlanishi va ular o‘rtasidagi munosabatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qadimgi davlatlarning o‘zaro munosabatlari natijasida rivojlanib borgan.

Xalqaro huquqning mustaqil huquq tizimi sifatida shakllanishi jarayonida xalqaro shartnomalar huquqi, tashqi munosabatlar huquqi vujudga kelgan.

Xalqaro huquq tizimi quyidagi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi: xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro xavfsizlik huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar.

Izlanishda davom eting

Quyidagi huquq institutlari qaysi huquq sohalariga taalluqli ekanligini tahlil qiling:

1. Jinoiy javobgarlik.
2. Mualliflik huquqini himoya qilish.
3. Diplomatik munosabatlar va elchilik.
4. Iste’molchilar huquqini himoya qilish.
5. Mehnat muhofazasi.
6. Nikoh.
7. Mulkiy majburiyatlar.

15-DARS. HUQUQIY MUNOSABATLAR

Xalqning o‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri tasdiqlamagan qonun — haqiqiy emas.

Jan Jak Russo

Faollashtiruvchi savollar



1. Boshqa shaxslar bilan ijtimoiy munosabat o‘rnatish insonga nima uchun kerak?
2. Ijtimoiy munosabatlarda xatoga yo‘l qo‘yish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
3. Huquqiy munosabat deganda nimani tushunasiz?
4. Rasmdagi shaxslar o‘zlariga tegishli narsalarga (mulkka) nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlari mumkin?
5. Rasmlarda tasvirlangan shaxslarning hammasini ham boshqa shaxslar bilan huquqiy munosabat o‘rnatishga qodir desa bo‘ladimi? Nima uchun?





Yodda tuting

Huquqiy munosabatlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularni fuqarolik, mehnat, jinoiy, ma’muriy, iqtisodiy va boshqa shu kabi turlarga ajratish mumkin. Masalan, oldi-sotdi bitimlari fuqarolik, jinoyat sodir etish jinoiy-huquqiy munosabatlarga misol bo‘la oladi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqiy munosabatlar shaxslar o‘rtasidagi huquqiy aloqa bo‘lib, uning natijasida shaxslarda huquq va majburiyatlar vujudga keladi. Huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar “**huquqiy munosabatlar**” deyiladi. Ularning vujudga kelishi uchun yuridik fakt — hodisa (masalan, insonning tug‘ilishi yoki o‘lishi, yong‘in) yoki harakat (masalan, huquqbuzarlik) yuzaga kelishi lozim bo‘ladi.

Huquqiy munosabat ishtirokchilari o‘zlariga tegishli huquq va majburiyatlarni to‘liq bajarishlari lozim. Huquq va majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Huquqiy munosabatlar — kishilar o‘rtasidagi huquqiy aloqalardir. Huquqiy munosabatlarda kamida ikki tomon ishtirok etadi. *Birinchi tomon* — huquq egasi, *ikkinchi tomon* — majburiyatni bajaruvchi.

Huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi, ularning vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan tarkibiy qismlar mazkur munosabatlarning “tarkibiy qismlari” deb ataladi.

Huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismlari: obyekt, subyekt, subyektiv huquq va yuridik majburiyat. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining diqqati qaratilgan aniq narsa huquqiy munosabatlarning **obyektidir**. Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari — huquq va majburiyat egalari huquqiy munosabatlarning **subyektlari** hisoblanadilar. Huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquq normasiga asosan bajarishi lozim (bajarilishi o‘ziga bog‘liq bo‘lgan harakati) yoki ularning ma’lum harakatlarni amalga oshirilishini talab qilish vakolati **subyektiv huquq** tushunchasini ifodalaydi.

Yodda tuting

Huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari *— huquq va majburiyat egalari huquqiy munosabatlarning subyektlari hisoblanadilar.*

Huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan bir-birlari oldida bajarishlari lozim bo‘lgan burchi (majburiyati) yoki ba’zi harakatni sodir etishdan o‘zlarini tiyishlari **yuridik majburiyat** hisoblanadi.

Huquqiy munosabat
(oldi-sotdi misolida)



1. Sotuvchining majburiyati — sifatli tovarni taqdim qilish, huquqi — tovarning pulini olish.
2. Xaridorning huquqi — sifatli tovarni sotib olish, majburiyati — tovarning pulini to‘lash.

Hamkorlikda bajaramiz

Quyida keltirilgan har bir vaziyatdagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilarini aniqlang.

Huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining subyektiv huquq hamda yuridik majburiyatlarini tahlil qiling.

1



Aziz 18 yoshga to‘lgan kuni otasi unga do‘konga sotuvchi bo‘lib ishga kirishiga ruxsat berdi.

2



Farzona 8 yosh. U juda chiroyli rasm chizadi. Ota-onasi uning rasmlari ko‘rgazmasini tashkil qilishga yordam berishdi.

3



Fayzulloh 14 yoshda. U yosh musiqachilar o‘rtasida o‘tkazilgan xalqaro tanlovda birinchi o‘rinni egallab sovrindor bo‘ldi. Fayzulloh o‘zining yakkaxon konsertini berish uchun tayyorlanmoqda. Konsertdan tushadigan mablag‘ni bolalar salomatligini tiklash bo‘yicha tashkil etilgan fondlarga o‘tkazishni rejalashtirgan.

Shahlo 16 yoshga to‘lganida opasi unga mushuk bolasi (xumpar)ni sovg‘a qildi. Shahloda qanday huquqiy majburiyatlar yuzaga keldi?

4



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar, ya'ni subyektlar **huquq layoqatiga** hamda **muomala layoqatiga** ega bo'lishlari talab etiladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, masalan, tibbiy yordam olish, turar joyga, o'z ismi, familiyasiga ega bo'lish huquqlariga ega. Aqli zaif va ruhiy kasallar ham huquqiy layoqatga ega. Ular ham yashash, davolanish, nafaqa olish, mulkdor bo'lish huquqiga egadirlar. Ayrim davlatlarda hali tug'ilmagan bola ham huquqiy layoqatga ega. U merosxo'r bo'la oladi.

Muomala layoqati yosh va ruhiy salomatlik bilan bog'liq. O'zbekiston qonunlariga binoan, to'la muomala layoqati fuqaro 18 yoshga to'lgandan so'ng boshlanadi. Lekin ushbu qoidadan istisnolar ham mavjud. Masalan, shaxs jinoiy javobgarlikka 16 yoshdan, ayrim jinoyatlar uchun 14 yoshdan tortilishi mumkin. Boshqa bir misol, Oila kodeksi ayrim hollarda 18 yoshga to'lmasdan turib nikohdan o'tishga ruxsat beradi. Bunday fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan boshlab to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Qonun belgilaydi

Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati **(huquq layoqati)** teng ravishda e'tirof etiladi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 17-modda

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati **(muomala layoqati)** u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 22-modda

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 39-modda

Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi holatlar qanday huquqiy munosabat ekanligini va ularning tarkibiy elementlarini tahlil eting.

1. Elyor ismli bola ingliz tilini o‘rganish uchun o‘quv markazidagi kurslarga qatnashmoqda.
2. Zafar ismli bola svetoforning qizil chirog‘i yonib turgan bo‘lishiga qaramasdan, yo‘lni kesib o‘tdi.
3. Mohigul sport to‘garaklariga qatnashmoqda.
4. A’zamjon ismli bola maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya olmoqda.
5. Ahrorjon ismli bola maktabga kech qolmaslik uchun jamoat transportida yo‘lga chiqdi.
6. “Ziyo-zukko umumta’lim maktabi” va ota-onalar o‘rtasida ta’lim xizmatlarini amalga oshirish to‘g‘risida shartnoma tuzildi.
7. “Ziyo muallim pedagoglar rivojlanish markazi” nodavlat ta’lim muassasasi Saodat Shermuhamedova bilan bir yillik o‘quv kurslarida trening o‘tkazish bo‘yicha shartnoma tuzdi.
8. Husniddin 144-umumta’lim maktabiga tarix o‘qituvchisi lavozimiga ishga kirish uchun shartnoma imzoladi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Quyida turli huquqiy munosabatlarga misol keltirish orqali ularning tarkibiy elementlariga e’tibor qaratib o‘tamiz:

Fuqaroviy-huquqiy munosabat — masalan, Bobur do‘kondan o‘quv qurollarini sotib olishi: Bunda Bobur va do‘kon sotuvchisi — **subyekt**, o‘quv qurollari — **obyekt**, Boburning o‘quv qurollar sifatini tekshirishi va mahsulot haqida ma’lumot olish huquqi — **subyektiv huquq**, to‘lovni amalga oshirishi — **yuridik majburiyat** hisoblanadi.

Jinoiy-huquqiy munosabat — masalan, Abdulla do‘kondan qimmatbaho o‘quv qurollarini o‘g‘irlab olishi: Bunda Abdulla — **subyekt**, qimmatbaho o‘quv qurollari (mulk huquqining buzilishi) — **obyekt**, do‘kon egasi o‘z mulkini qaytarib olishi yoki tovon puli olishi — **subyektiv huquq**, Abdullaga nisbatan ta’sir choralari (jazo)ni qabul qilib olish oqibati — **yuridik majburiyat** hisoblanadi.

Ma’muriy huquqbuzarlik munosabatlari — masalan, Ulug‘bek ismli shaxs Shohista ismli qizni haqorat qildi: Bunda Ulug‘bek — **subyekt**, Shohista ismli qizning sha’ni, qadr-qimmati — **obyekt**, Shohista holat bo‘yicha Ulug‘bekni javobgarlikka tortish bo‘yicha murojaat qilishi — **subyektiv huquq**, Ulug‘bekka nisbatan qo‘llanilgan ta’sir choralari (jazo)ni qabul qilib olish oqibati — **yuridik majburiyat** hisoblanadi.

Mehnat munosabatlari — masalan, Jahongir ismli shaxs korxonada ishlab keladi: Bunda Jahongir va ish beruvchi — **subyekt**, mehnat qilish huquqi — **obyekt**, mehnat qilish natijasida ish haqi olish — **subyektiv huquq**, mehnat muhofazasi va xavfsizligiga rioya qilish — **yuridik majburiyat** hisoblanadi.

Izlanishda davom eting

1. Huquq layoqati va muomala layoqatini misollar bilan tushuntiring.
2. Siz qanday huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lishingiz mumkin? Misol keltiring. Bir kun davomida siz necha marotaba huquqiy munosabatga kirishasiz? Munosabatlar ro‘yxatini shakllantiring. Bu munosabatlar sizga qanday majburiyatlar yuklaydi va qanday huquqlarga ega bo‘lasiz?
3. O‘zingizga tegishli bo‘lgan huquqlaringiz ro‘yxatini tuzing. Bu huquqlarga qanday va qachondan boshlab ega bo‘lganingizni asoslang.

Quyidagi huquqiy munosabatlarning tarkibini tahlil qiling.

Huquqiy munosabatlar	Huquqiy munosabat subyekti	Huquqiy munosa-bat obyekti	Subyektiv huquq	Yuridik majburiyat
Furqat tumanida yashovchi fuqaro Akbarova “Qishloqqurilishbank” ATBning Qo‘qon filialidan qoramol sotib olish uchun 2 yil muddatga 10 million so‘m miqdorda kredit olib, oilaviy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘ydi.				
Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi “Begimqul Raimqulovich orzusi” xususiy korxonasi rahbari Samandarov “Mikrokreditbank” ATB Sirdaryo viloyat filiali tomonidan kredit ajratilmayotganligidan norozi bo‘lib Adliya vazirligining “Ishonch telefoni”ga murojaat qildi.				
“Gold distribution” MCHJ huquqshunosi Mirzo Ulug‘bek tumani Savdo xizmat ko‘rsatish sohasi va xalq iste’mol mollari ishlab chiqarish departamentiga ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsat beradigan litsenziyani qayta rasmiylashtirib berish yuzasidan murojaat qildi.				
Fuqarolar Akbarov va Hasanovalar 2024-yil 10-avgust kuni tuman FHDY bo‘limidan nikohdan o‘tdi.				
“Adesign” shirkati o‘zining internet sahifasini yaratib berish uchun Abduvohid ismli dasturchi bilan xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzdi.				

16-DARS. IJODIY FAOLIYAT

Quyida berilgan ta'riflarni javoblar bilan moslashtiring.

1-jadval

1	O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining turlari —	A	butun jamiyat tomonidan yaratiladi. Bu normalar doimiy ravishda kishilar amaliy faoliyati, ularning o'zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi.
2	Axloq normalari —	B	davlatlararo shartnomalar, hukumatlararo shartnomalar, idoralararo shartnomalar.
3	Huquq manbasi —	D	sudning umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan aniq bir ish bo'yicha qarori. Yuridik pretsedentning o'ziga xos jihati shundaki, u qabul qilingach, o'sha masala bo'yicha umummajburiy qoidaga aylanadi.
4	Xalqaro huquq —	E	huquqning ifoda etilish shakli. Huquq manbasi o'zida huquq normasining paydo bo'lishi va amal qilinishiga imkon beruvchi manbalarni ifodalaydi.
5	Yuridik pretsedent —	F	davlatlar, xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

2-jadval


1	Normativ-huquqiy hujjat —	A	ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitim hisoblanadi.
2	Xalqaro shartnoma —	B	davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan huquqiy hujjatlarning rasmiy turi. Davlatning vakolatli organlari faoliyatida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadiga qaratilgan umummajburiy qoidalar majmuyi.

3	Huquq normasi —		D	bu huquqning ichki tuzilishi bo‘lib, huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat’iy izchillikda joylashgan tartibidir.
4	Huquq tizimi —		E	bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari guruhi.
5	Huquq institutlari —		F	jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi, davlat tomonidan o‘rnatiladigan va muhofaza qilinadigan, bajarilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun umummajburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.

3-jadval

1	Huquq sohasi —		A	mulk bilan aloqador hamda nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.
2	Mehnat huquqi —		B	oila va nikoh bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.
3	Fuqarolik huquqi —		D	qanday xatti-harakatlar jinoyat ekanligini belgilaydi, ularni sodir etganlar qanday jazolanishini va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.
4	Oila huquqi —		E	ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga soladi.
5	Jinoyat huquqi —		F	bu ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi huquq normalari va huquq institutlarining yig‘indisi.

Respublika
Ta'lim Markazi



III BOB

HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK

17–18-DARS. HUQUQIY XULQ-ATVOR

Haqqoniylik hamma joyda, ayniqsa, tarbiya masalasida eng muhim omildir.

Lev Tolstoy

Faollashtiruvchi savollar



1. Jamoat transportidan foydalanish tartibini daftaringizda to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.
2. Nega aynan shu tartib to‘g‘ri deb o‘ylaysiz?
3. Jamoat transportidan foydalanishda qanday xulq-atvor qoidalariga amal qilish kerak?
4. Jamoat transportidan foydalanishda qanday xulq-atvorli bo‘lish mumkin emas?





Fikrimizni tasdiqlaymiz

Kishilarning xatti-harakati yoki harakatsizligiga qarab ularning umumiy ko‘rinishi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Odatda, biz biror kimsani “odobli”, “xushmuomala” kabi ijobiy so‘zlar bilan ta’riflaymiz. Bunda biz o‘sha odamning odobi, fe’l-atvorini nazarda tutamiz va unga baho beramiz. Shaxsning bunday ijobiy ta’riflanishi va xulq-atvorining xususiyatlari axloqshunoslik fanlarida o‘rganiladi.

Xulq-atvor keng tushuncha bo‘lib, ijtimoiy xarakter kasb etadi. Chunki ijtimoiylik kishilarning boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatida yuzaga keladi. Shu sababli xulq-atvorni “ijtimoiy hodisa” deb atash mumkin.

Xulq-atvorning ko‘plab ko‘rinishlari mavjud. Misol uchun, ijtimoiy xulq-atvor (masalan, boshqa shaxslar bilan muomala qilish), diniy xulq-atvor (masalan, ro‘zadorning xulq-atvori) va boshqalar.

Yodda tuting

Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan tushunchalarni ifodalab, u muayyan bir shaxsga taalluqli bo‘ladi. Xulq-atvor esa kishining oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o‘zgarish yasaydigan xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi.

Xulq-atvor, umuman olganda, mavhum axloqiy hodisa bo‘lib, u insonni boshqalar tomonidan baholashdagi mezonlardan biri bo‘lishi mumkin: ijobiy ma’noda — xushxulqlilik; salbiy ma’noda — odobsizlik.

Xulosa qiling

Demak, xulq-atvor keng tushuncha bo‘lib, huquqiy xulq-atvor uning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Huquqshunoslik fanida huquqiy xulq-atvor o‘rganiladi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Huquqiy xulq-atvor — bu huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan, huquq subyektlarining ongli xatti-harakati (harakatsizligi) hisoblanadi.

Huquqiy xulq-atvor xususiyatlari

Ijtimoiy foydalilik — shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida o‘zaro manfaatlarning qondirilishiga xizmat qiladi. Jamiyatning rivojiga hissa qo‘shadi.

Huquq normalariga muvofiqlik — xatti-harakatlar qonuniy bo‘lib, nafaqat huquq normalariga mos keladi, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham zid kelmaydi.

Onglilik va ixtiyoriylik — shaxsning muayyan maqsadlarga erishishi uchun qonuniy harakatlarning ongli ixtiyoriy xususiyatiga ega bo‘ladi.

Huquqiy oqibatlarga egalik — shaxsning harakatlari yoki harakatsizligi tufayli turli huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

Davlat tomonidan muhofaza etilishi — huquq normalari orqali davlat shaxslarning xulq-atvorini yo‘naltiradi, himoya qiladi, rag‘batlantiradi, muhofaza etadi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz



Huquqqa mos keluvchi huquqiy xulq-atvor deyilganda saylovlarda namunali ishtirok etish, yo‘l belgilariga, shuningdek, jamiyatdagi boshqa yurish-turish qoidalariga qat’iy amal qilish tushuniladi. Bunda shaxsning xulq-atvori huquq normalariga mos keladi. Bunday huquqiy xulq-atvorni jamiyat a’zolari va davlat rag‘batlantiradi.

Huquqqa zid keluvchi xulq-atvorga bezorilik qilish, o‘zgalarning qonuniy huquqlariga putur yetkazish, boshqa shaxslar, jamiyat va davlat mulkiga zarar yetkazish kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Huquqqa zid keluvchi xulq-atvor jamiyat va davlat tomonidan qoralanadi. Huquqqa zid keluvchi xulq-atvorga ega shaxslarning xatti-harakatlari uchun turli ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin.

Betaraf huquqiy xulq-atvor — shaxsning xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida salbiy yoki ijobiy huquqiy oqibatlar kelib chiqmasligini nazarda tutadi. Misol uchun, saylovlarda ishtirok etmaslik. Chunki saylovda ishtirok etish shaxsning siyosiy huquqi bo‘lib, bu majburiyatni ifodalamaydi. Saylovda ishtirok etmaslik davlat tomonidan tegishli ta’sir choralarini qo‘llashga olib kelmaydi.

Xulosa qiling

Quyidagi davlatlarda saylovlarda ishtirok etmaslik turli jazo choralarini qo‘llashga olib keladi.

Belgiyada saylovga birinchi marta uzrli sababsiz kelmaganlik uchun jarima solinadi. Agar bunday qoidabuzarlik takroriy sodir etilsa, jarima miqdori oshiriladi.

Gretsiyada saylovda uzrli sababsiz ishtirok etmaslikka nisbatan jarimadan tashqari, hibsga olish va bir oydan bir yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish kabi jazo choralari qo‘llanilishi mumkin.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqiy xulq-atvorning shakllari

Faol huquqiy xulq-atvor

bu shaxsning tashabbuskorlik bilan amalga oshiradigan, ma’lum maqsadga qaratilgan, qonunga mos harakatidir. Bunda shaxs faol harakat qilib, harakatsizlikka yo‘l qo‘ymaydi.

Odatiy huquqiy xulq-atvor

bu kundalik hayotda kishilarning huquq normalariga mos keladigan xulq-atvori hisoblanadi. Bunda shaxslar o‘zlarining huquq normalarida belgilangan huquq va majburiyatlarini kundalik hayotda takroriy ravishda amalga oshiradilar.

Sust huquqiy xulq-atvor

shaxslarning harakatsizligi bilan ifodalanadigan majburiyatlarini nazarda tutadi. Bu fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklaridan foydalanmasligida namoyon bo‘ladi. Masalan, fuqarolarning saylovlarda ishtirok etmasligi.

G'ayriijtimoiy xulq-atvor *— shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi harakati yoki harakatsizligi.*

Huquqiy xulq-atvorning barcha shakllari shaxsning har tomonlama uyg'unlashuviga muhim turtki bo'ladi. Ular shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishiga, komil inson sifatida shakllanishiga yordam beradi. Lekin huquqqa zid hamda g'ayriijtimoiy xulq-atvor harakatlarini sodir etmaslik lozim. Aks holda, buning oqibatida tegishli jazo choralari qo'llanilishi mumkin.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Huquqiy xulq-atvor hamda ijtimoiy xulq-atvorning o'zaro farqlari nimada deb o'ylaysiz?
2. Betaraf huquqiy xulq-atvor salbiy yoki ijobiy holat hisoblanadimi?
3. Bolalar huquqiy xulq-atvorning subyekti bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarga misol keltiring.
4. Huquqiy xulq-atvorning faol va odatiy shakllariga misol keltiring va ularning o'zaro farqlarini tushuntirib bering.

Izlanishda davom eting

Quyidagi huquqiy xulq-atvorning shakllariga misollar keltiring:

№	Faol huquqiy xulq-atvor	Odatiy huquqiy xulq-atvor	Sust huquqiy xulq-atvor
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

19–20-DARS. HUQUQBUZARLIK

Jazolashga qodir bo‘lmagan hakam oxir-oqibatda jinoyatga sherik bo‘ladi.


Gyote

Faollashtiruvchi savollar


1. Quyida berilgan vaziyatlarni diqqat bilan o‘qing va ularga o‘z munosabatingizni bildiring.

2. Siz hayotda tez-tez eshitib turadigan huquqbuzarlik, huquqqa zid, ijtimoiy xavfli, ayb, jinoyat, jazo, intizom so‘zlarini quyida berilgan holatlarning qaysi biriga nisbatan ishlatgan bo‘lar edingiz?

3. Sizning fikringizcha, berilgan vaziyatlardagi shaxslarning harakatlaridan qaysi biri atrofdagilarga va ularning o‘zlariga ko‘proq xavf tug‘diradi?



A. Ikromov avtomobilni boshqarib borayotib tezlikni oshirib yubordi va baxtsiz hodisa sodir bo‘lmaydi, deb umid qildi, chunki u tajribali haydovchi. Biroq u piyodalar yo‘lagida to‘xtashga ulgurmay qoldi va piyodani urib yubordi. Voqea guvohlari yo‘qligidan foydalanib jinoyat sodir etilgan joyni tark etdi, ammo tez orada hibsga olindi. Piyoda olgan jarohatlari tufayli vafot etdi.



B. Ikki do‘st urishib qoldi. Janjallashish jarayonida ulardan biri o‘ta g‘azablangan holda belkurakni olib, chetga uloqtirdi. O‘sha paytda qo‘shni ayol o‘tib ketayotgan edi. Belkurak uning qo‘liga tasodifan zarb bilan tegdi. Qo‘lni sindirish shaklidagi jismoniy shikastlanish sodir bo‘ldi.



D. Yuk tushiruvchi Alijonov yuklarni omborga tashish paytida sinishi mumkin bo‘lgan narsalari bor qutini tasodifan tushirib yubordi. Lekin qutining ustiga bu haqdagi ogohlantiruvchi belgi qo‘yilmagan edi.



E. Tadbirkor Azimov Oltiariq tuman hokimining tegishli qarori bilan ijaraga berilgan yer maydonida dala hovli binosining qurilish ishlarini ruxsatsiz olib bordi. Natijada atrofda istiqomat qiluvchilarda norozilik kayfiyati yuzaga keldi. Chunki qurilish ishlari davomida atrof tabiiy muhitga katta miqdorda chang-to‘zon ko‘tarildi, shovqin-suron kelib chiqdi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Davlat paydo bo‘lgan jamiyatda insonlar davlat tomonidan o‘rnatilgan ma’lum huquqiy qoidalarga amal qilib yashashlari majburiy etib belgilangan. Huquqiy qoidalarga amal qilmaslik esa huquqiy normalarning buzilishiga va natijada ma’lum bir javobgarlikka asos bo‘lgan. Tarixning qaysi davri bo‘lmasin, huquqiy normalarning buzilishi “huquqbuzarlik” deb ataladi.

Brainring daqiqa

Huquqbuzarlik — o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid xatti-harakatidan kelib chiquvchi qilmishdir.

Yodda tuting

Huquqbuzarlik *— ijtimoiy xavfli qilmish.*

HUQUQBUZARLIKNING BELGILARI

IJTIMOIY XAVFLILIK

Ijtimoiy hayot ishtirokchilari bo‘lgan turli shaxslar, jamiyat, davlatning qonuniy huquq va manfaatlariga huquqbuzarlik oqibatida zarar yetkazish tushuniladi.

AYBLILIK

Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etishni anglatadi.



HUQUQQA ZIDLIK

Huquqbuzarning qonun normalari belgilab qo‘ygan majburiy talablarni buzishi.

JAZOGA LOYIQLIK

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishini anglatadi.

Hamkorlikda bajaramiz

Quyida berilgan vaziyatlarda huquqbuzarlikning belgilari bormi? Javob berishda tegishli qonun hujjatlaridan foydalaning.

1. 15 yoshli Gulnoza sinfdoshi Noilaning mobil telefonini uyga qo‘ng‘iroq qilish uchun so‘rab turdi. Lekin Noilaning telefonidagi barcha rasmlarni o‘z telefoniga o‘tkazib oldi. Rasmlarni fotoshop dasturi orqali o‘zgartirib, o‘zining instagram sahifasiga joylashtirdi.

2. 8-sinf o‘quvchilari Hamdam, Xurshid, Javohir va Baxtiyor bolalikdan birga o‘sgan do‘stlar. Bir kuni ular Baxtiyorning otasiga tegishli “Mercedes-Benz” rusumli avtomobilni haydab ko‘rmoqchi bo‘ldilar. Katta ko‘chaga chiqqanda boshqaruvni yo‘qotib, simyog‘ochga urib oldilar.

3. Uyiga qaytayotganida avtobusga chiqqan Nosir pulini qayerdadir tushirib qo‘yganini bilib qoldi. Shu sababli avtobus chiptasiga pul to‘lamay, orqa eshikdan hech kimga sezdirmasdan qochib ketdi.

4. Zamira ismli 8-sinf o‘quvchisini ustozi fizika darsini tayyorlamagani uchun qattiq koyib berdi. Ustozidan xafa bo‘lgan Zamira dars tugashini kutdi. Hamma maktabdan ketganidan so‘ng sinf xonasining eshigiga haqoratli so‘zlarni mix bilan o‘yib yozib qo‘ydi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Ijtimoiy xavflilik shundan iboratki, bunda huquqbuzar jamiyat qadriyatlarini toptaydi, inson hayotiga suiqasd qiladi, davlat va insonlarga zarar keltiradi, ularning mol-mulki nobud bo‘lishiga olib keladi hamda noxush hodisalar keltirib chiqarib, jamiyat a’zolari manfaatiga zid ishni amalga oshiradi. O‘z oilasi, ota-onasi, jamoasi, yor-u birodarlarini qiyin, uyatli ahvolga solib qo‘yadi. Eng yomoni — u o‘z kelajagini barbod qiladi.

Huquqqa zidlik — huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo‘ygan majburiy talablarni buzishi.

Ayblilik yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid, qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir. Ayb qasd yoki ehtiyotsizlik oqibatida kelib chiqadi. Inson dunyoga kelar ekan, uning oldida doimo ikki yo‘l turadi. Birinchisi — huquqiy normalarga, qonun talablariga vijdonan bo‘ysungan holda o‘z kelajagini yaratish, jamiyat uchun, o‘z xalqi uchun ijtimoiy foyda keltirish. Ikkinchi yo‘l esa hayoti davomida huquqqa xilof, huquqiy norma va qonun talablarini mensimasdan, ularga bo‘ysunmasdan yashash, aybli harakat qilish, jamiyatga zarar yetkazish.

Jazoga loyiqlik — bu har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi, **jazo** esa huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan, huquqbuzarni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasidir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, jamiyat uchun xavfli bo‘lgan har qanday qilmish huquqbuzarlik deyiladi.

Huquqbuzarlik turlari

- intizomiy huquqbuzarlik
- ma’muriy huquqbuzarlik
- fuqaroviy huquqbuzarlik
- jinoiy huquqbuzarlik

Intizomiy huquqbuzarlik — xizmat burchini bajarib turganda har qanday mehnatda majburiy bo‘lgan mehnat tartib-qoidalarining va rahbarlikka bo‘ysunish tamoyillarining buzilishi. Masalan, ishga, o‘qishga kech qolish; ishga yoki o‘qishga sababsiz kelmaslik yoki sababsiz ketib qolish; ishga spirtli ichimliklar iste’mol qilgan holda kelish va boshqalar.

Fuqaroviy huquqbuzarlik — insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunga xilof harakat (yoki harakatsizlik) natijasida yetkazilgan zarar. Masalan, bir shaxsdan qarz olib, uni vaqtida qaytarmaslik; shartnomalarni, majburiyatlarni bajarmaslik va boshqalar.

Jinoiy huquqbuzarlik — Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o‘z xususiyatiga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘lmagan taqdirda amalga oshiriladi.

Qonun belgilaydi

Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30-modda

Brainring daqiqa

Huquqbuzarlik subyekti — bu huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs, ya'ni huquqbuzardir. Har qanday shaxs ham huquqbuzarlik subyekti hisoblanmaydi, faqat o'z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso shaxsgina shunday subyekt sifatida tan olinadi.

Huquqbuzarlik obyekti — bu huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Ijtimoiy xavfli qilmish oqibatida boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga zarar yetishi mumkin. Bunda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari huquqbuzarlikning obyekti hisoblanadi.

Yodda tuting

Aqli rasolik — odamning ruhiy jihatdan sog'lom holati hisoblanadi. Huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxsdir.

Brainring daqiqa



Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni shaxsning sodir etilgan qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi. Ya'ni u huquqbuzarning ichki kechinmalari, maqsadi va turli boshqa sabablarni o'z ichiga olishi mumkin. Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisi — aybdir.

Ayb — huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishidagi munosabati. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonuniy tartibda aybi sudda oshkora ko'rib chiqilib, aniqlanmaganiga qadar aybdor emas deb hisoblanadi.

Hamkorlikda bajaramiz

Berilgan vaziyatda huquqbuzarlikning subyektiv tomonini toping.

18 yoshli Maftuna Lazizni ko'pchilikning oldida haqorat qilgani uchun Laziz uning bir o'zi qolishini kutib turdi va tan jarohati yetkazdi.

Brainring daqiqa

Qasd — shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatni sodir qilayotganida bu harakat (harakatsizlik)ning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning oqibatini anglashi yoki tushunishi, yoki bu munosabatning ma'lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo'l qo'yishi tushuniladi. Huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Milliy qonunchilikka ko'ra, qasdning ikki turi mavjud bo'lib, ular to'g'ri qasd va egri qasddir.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik **to'g'ri qasddan** sodir etilgan deb topiladi. Bunda shaxs huquqbuzarlikni ichki xohishidan kelib chiqib, ongli ravishda bajaradi.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik **egri qasddan** sodir etilgan deb topiladi. Ya'ni shaxs huquqbuzarlik sodir bo'lishiga yo'l qo'yib beradi.

Hamkorlikda bajaramiz

Ushbu vaziyatlardagi ayb shakllarini ko'rsating.

1. Mohina ismli 8-sinf o'quvchisi sinfda hech kim yo'qligidan foydalanib o'qituvchining sumkasidagi pulni va qo'l telefonini oldi.

2. 18 yoshli Sindor qo'shnisining tovuqlaridan bezor bo'lib, tovuqlarni yo'q qilish uchun ular suv ichadigan idishga kimyoviy modda solib qo'ydi. Biroq qo'shnining yosh bolalari shu suvdan ichayotganligini ko'rib ham ularni ogohlantirmadi. Oqibatda qo'shni bolalarning hazm qilish organlarida kuchli shikastlanish vujudga keldi.

Brainring daqiqa

Huquqbuzarliklar ba'zan ehtiyotsizlik oqibatida ham sodir etilishi mumkin. O'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik tufayli sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Agar huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasidan sodir etilgan deb topiladi.

Qasddan sodir etilgan huquqbuzarliklarga beriladigan jazo choralari qattiqroq bo‘lib, huquqbuzarlik qasddan sodir etilganligi surishtiruv, tergov jarayonlarida aniqlanadi. Ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan huquqbuzarliklar esa qasddan sodir etilgan huquqbuzarliklarga qaraganda yengilroq ta’sir choralari bilan jazolanadi.

Hamkorlikda bajaramiz

Berilgan vaziyatda ehtiyotsizlik shaklini ko‘rsating.

1. Haydovchi svetoforning sariq chirog‘i yonganini ko‘rgan bo‘lsa ham, tezkorlik bilan o‘tib ketishga harakat qildi. Oqibatda boshqa yo‘nalishdagi avtomashinaga zarar yetkazib qo‘ydi.

2. Qurilish joyida elektr ustasi elektr uzatkichni o‘chirishni unutib qo‘yishi oqibatida boshqa ustalar elektr kuchlanishdan zarar ko‘rdi.

Brainring daqiqa

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni — bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisidir. Aynan shunday belgiga asosan, huquqbuzarlik haqida, u qanday ro‘y bergani va qanchalik zarar keltirgani haqida mulohaza yuritish mumkin bo‘ladi. Ya’ni huquqbuzarlik, qachon, qayerda, qanday qilib, qanday usul va vositalar yordamida sodir etilganligi to‘g‘risidagi xulosaga kelinadi.

Hamkorlikda bajaramiz

Berilgan vaziyatda huquqbuzarlikning obyektiv tomonini aniqlang.

Eldo‘st ismli shaxs Akobir ismli shaxsning uyiga kechasi soat 23:30 da bosqinchilik niyatida yashirincha kirib keldi. Uyda hech kim yo‘qligini aniqlab, mehmonxonadagi qimmatbaho buyumlarni olib chiqib ketdi.

Izlanishda davom eting

1. Aqli noraso kishi huquqbuzarlik subyekti bo‘la oladimi? Nima uchun?
2. Shaxs huquqbuzarlik obyekti bo‘la oladimi? Nima uchun?
3. Tuhmat qilishda huquqbuzarlikning obyekti nima?
4. To‘g‘ri va egri qasddan sodir etiladigan huquqbuzarliklarga misol keltiring.
5. Huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun qanday choralarni ko‘rish kerak deb o‘ylaysiz?

21–22-DARS. YURIDIK JAVOBGARLIK

Agar ta'lim-tarbiya va jazo to'g'risida qonun-qoida bo'lmasa, mamlakat ishlari buziladi.

Husayn Voiz Koshifiy

Faollashtiruvchi savollar

1. Buxorolik Baxtiyor ilgari Chirchiq jinoiy ishlar bo'yicha sudi tomonidan sudlanib, amnistiya tufayli jazodan ozod bo'lgandi. Lekin yana jinoyat ko'chasiga kirdi.

Ozodlikka chiqqach, davlat ro'yxatiga olingan "Minor" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari bo'lib ish boshladi. Jamiyatning chakana savdo qilish huquqi bo'lmasada, 2024-yilning yanvar – aprel oylarida amalga oshirilgan 513 mln so'mlik tovar aylanmasidan 263 mln so'mlik xaridorgir mahsulotlarni naqd pulga sotib, uni bank muassasasiga topshirmadi.

Baxtiyor O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga ko'ra javobgarlikka tortildi.

Manba: Buxoro tuman prokuraturasi

2. 2006-yil 1-yanvardan Germaniyada yangi qaror kuchga kirdi. Unga ko'ra, qish mavsumida kim shinalarni qishkisiga almashtirmay avtomobil boshqarsa, 20 yevro miqdorida jarimaga tortiladi. Agar mashina shinasi almashtirilmaganligi uchun yo'lda to'xtab qolsa va harakatga xalaqit bersa, jarima ikki baravar oshiriladi.

Bunday choralar qish mavsumida Skandinaviya mamlakatlarida ham amalda qo'llaniladi.

Manba: "Autonews.uz"

3. Toshkent shahar prokuraturasi poytaxt dorixonalarida tekshiruv o'tkazmoqda. Bunga sabab ko'plab odamlarning qator dorixonalarda muddati o'tgan dori-darmonlar sotilishi haqidagi shikoyati bo'ldi. Prokuratura hamda Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi hamkorlikda o'tkazgan tekshirishlarda arizalarda ko'rsatilgan vajlar to'liq isbotini topdi. Shuningdek, ayrim dorixonalarda sotilishi man qilingan dori-darmonlar bilan savdo qilinayotganligi ham ma'lum bo'ldi. Tekshiruvlar natijasiga ko'ra, Toshkent shahar prokuraturasi tomonidan 70 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Manba: "Huquq" gazetasi

4. Xakerlar tomonidan yaratilgan yangi virus AQSHdagi kompyuterlarga zarar yetkazyapti. Ushbu virus go'yoki Federal tergov byurosi (FTB) nomidan yuborilgan xatlar ichiga joylashtirilgan.

Xatda: "FTB sizning taqiqlangan, maxfiy internet saytlarga kirganligingizni aniqladi. Quyidagi faylni ochib, bir necha savolga javob berishingizni so'raymiz", — deb yoziladi. Xavfli viruslar esa ana shu ko'rsatilgan faylda bo'ladi. Fayl ochilishi bilan ular kompyuterni zararlaydi.

FTB o'zining bunga aloqasi yo'qligini aytib, hammani ehtiyot bo'lishga chaqirgan.

Manba: "Ekspert" nashri

1. Baxtiyor huquqbuzarlikning qaysi turini sodir etgan?

2. Baxtiyorga nisbatan qanday jazo chorasi belgilanishi va amalga oshirilishi mumkin deb o‘ylaysiz?

3. Germaniyada qabul qilingan yangi qarorga ko‘ra amalga oshirilayotgan jazo turini siz qanday nomlagan bo‘lar edingiz va bu misolda keltirilgan huquqbuzarlikni qaysi turga kiritar edingiz?

4. Toshkent shahar prokuraturasi tomonidan qo‘zg‘atilgan 70 ta holatda huquqbuzarlikning qaysi turlari nazarda tutilgan va ularga nisbatan qanday jazo qo‘llanilishi mumkin deb o‘ylaysiz?

5. 4-misoldagi xakerlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlarni siz qanday nomlagan bo‘lar edingiz? Siz ularga qanday jazo choralarini qo‘llar edingiz?

6. Keltirilgan misollarda bir necha turdagi jazoga loyiq huquqbuzarlikka misol bormi? Javobingizni asoslang.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqbuzarlik uchun jazoning muqarrarligi, har qanday huquqbuzarlik ma’lum bir javobgarlik bilan bog‘langanligi tabiiy hol. Lekin ijtimoiy javobgarlikning barcha shakllari doimo ham huquqiy javobgarlik bilan aynan bir xil bo‘lavermaydi.

Huquqiy normalarga asoslangan va davlat majburlov normalari bilan bog‘liq bo‘lgan javobgarlik yuridik javobgarlikni tashkil qiladi va aynan shu javobgarlikni o‘rganish huquqshunoslik fanining vazifalaridan biridir.

Yuridik javobgarlik — huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning o‘z qilmishi uchun huquq normalariga asosan javob berishi va davlat majburlov choralari ko‘rinishidagi oqibatlarga duchor bo‘lishi hamda ularni boshidan kechirishidir.

Huquqiy javobgarlikka asos huquqbuzarlik, ya’ni huquqiy normalarni buzish hisoblanadi.

Huquqbuzarlik turlari huquqiy javobgarlik turlariga mutanosibdir. Masalan:

– fuqaroviy huquqbuzarlik — fuqaroviy (moddiy)-huquqiy javobgarlikni;

– ma’muriy huquqbuzarlik — ma’muriy javobgarlikni;

– intizomiy huquqbuzarlik — intizomiy javobgarlikni;

– jinoiy huquqbuzarlik — jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Huquqiy javobgarlik sud tartibida, ma’muriy yoki intizomiy tartibda amalga oshiriladi.

Intizomiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga binoan, quyidagi turlardan iborat:

hayfsan, jarima solish, mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar (organlar) tomonidan qo‘llaniladi.

Fuqaroviy jazo — fuqaroviy huquqbuzarligi uchun aybdor shaxsning to‘liq moddiy va ma’naviy javob berishidir.

Ma'muriy jazolar quyidagilar:

jarima, haqini to'lash sharti bilan buyumni olib qo'yish, buyumni musodara qilish, maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish, ma'muriy qamoq: 3 sutkadan 15 sutkagacha, ayrim hollarda 30 sutkagacha.

Jinoiy jazo — O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 43-moddasida jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi belgilab qo'yilgan.

Jinoyat kodeksining 81-moddasida esa o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi haqida qayd etilgan.

Hamkorlikda bajaramiz

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 17-moddasini o'qing. Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar qanday jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladi?
2. Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 81-moddasida belgilangan qaysi jazo turlari qo'llaniladi?
3. Quyida berilgan vaziyatlarni o'rganib, qanday yuridik javobgarlik mavjudligini aniqlang.




Birinchi vaziyat

15 yoshli Shuhrat sinfdoshlari Bahrom va Botirni tug'ilgan kuniga chaqirgan edi. Stol ustida bir shisha spirtli ichimlik paydo bo'lganligini ko'rgan Botir: "Nega spirtli ichimlik qo'ydinglar? Bizga ichish mumkin emas, buning uchun jarima solishadi", — dedi.

"Qo'ysang-chi, agar ko'chada, jamoat joyida ichsak, jarima solishadi. Biz esa o'z uyimizdamiz", — dedi Shuhrat.

"Ikkingiz ham nohaqsizlar, qayerda ichilmasin, baribir buning uchun ota-onalarimizga jarima solishadi", — dedi Bahrom.




Ikkinchi vaziyat

Olim ismli fuqaro ishdan uyiga qaytib kelganida ayrim buyumlari o'g'irlanganini ko'rdi. O'g'ri shu mahallada yashovchi 15 yoshli M. ismli shaxs ekanligini kuzatuv kameralari orqali aniqladi. So'ng bu haqda ichki ishlar xodimlariga xabar berdi.



Uchinchi vaziyat

8-“A” sinfning matematika ustozi K. ismli o‘quvchiga dars qilmaganligi uchun tanbeh berdi. K. esa javoban: “Sizga nima? Sizning ishingiz bo‘lmasin. Meni tergaydigan ota-onam bor”, — deb gap qaytardi. O‘qituvchi: “Men sening foydangni ko‘zlab aytyapman. Ota-onangni hurmat qilsang, yaxshi o‘qishing kerak”, — deb biroz ovozini balandlatib gapirdi. K. esa qo‘lidagi papkasini ustozi tomon irg‘itib, o‘qituvchini kurakda turmaydigan so‘zlar bilan haqoratlab sinfdan chiqib ketdi.



To‘rtinchi vaziyat


Maktabda Aziza va Jahongir gap talashib qolishdi. Natijada ular bir-birini haqorat ham qilishdi. Ularni kuzatib turgan Shahzod vaziyatni mobil telefoniga videoga olib, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatdi.

Brainring daqiqa

Hindiston mustaqilligining asoschisi Mohandas Karamchand Gandi huquqshunos bo‘lganligini bilasizmi?

Gandining ajdodlari ham Gujarot shtatida huquqshunos sifatida ishlab kelishgan. Otasining vasiyati va amakilarining ko‘magi bilan Mohandas Angliyada huquqshunoslik bo‘yicha ta’lim olgan. 1891–1893-yillarda Bombay (Mumbay) shahrida huquqshunos, advokat vazifasida xizmat qilgan.

1893–1914-yillarda Gandi Janubiy Afrikadagi Gujarot savdo firmasida huquqshunos bo‘lib, ko‘plab chigal sud ishlarini qisqa muddatda hal etgan. Gandi Janubiy Afrikada malakali huquqshunos sifatida mashhurlikni qo‘lga kiritgan. Huquqshunoslikdagi muvaffaqiyati uning siyosiy faoliyati uchun asos bo‘lgan.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

2005-yilning 1-avgustida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi bekor qilinib, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosini joriy etish belgilandi.

Izlanishda davom eting

1. Huquqiy javobgarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Huquqiy javobgarlikka nimalar asos bo‘la oladi?
3. Huquqiy javobgarlik turlarini sanab bering.
4. Necha yoshdan boshlab ma’muriy va jinoiy huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilish mumkin?
5. Voyaga yetmaganlarga qanday jazolar qo‘llanilmaydi?

Loyiha ishi

Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun qanday tadbirlar amalga oshirishni taklif qilasiz? Bu tadbirlarda sizning ishtirokingiz qanday bo‘ladi? Tadbirga kimlarni jalb etgan bo‘lardingiz? Takliflaringizni quyidagi jadvalda ifodalang. Takliflar asosida jadvalni takomillashtirishingiz mumkin.

№	Tadbir nomi	Ishtirokchilar	Ko‘zlangan maqsad	O‘tkazish vaqti
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				

23–24-DARS. YURIDIK JAVOBGARLIKNING OQIBATLARI

Kishi farosatda qancha nogiron,
Aybini oqlashda shuncha bilag‘on.

Xusrav Dehlaviy

Faollashtiruvchi savollar




1. Mazkur rasmlarda qanday jazo turlari aks ettirilgan deb o‘ylaysiz?
2. Jinoyat uchun jismoniy jazolar qo‘llash mumkinmi?
3. O‘zbekistonda qanday jazo turi bekor qilingan?
4. Qaysi jazo turi jinoyatchilikka qarshi kurashda ko‘proq ijobiy natija beradi: moddiy javobgarlikmi yoki ozodlikdan mahrum qilishmi?





Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan jazo belgilanadi. Lekin unutmaslik lozimki, jazoning maqsadi jazolash emas. Jazo shaxsni axloqan tuzatish, yangi huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish maqsadidagina qo‘llaniladi.



Jazo huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan qo‘llaniladigan **majburlov chorasidir**.

Jinoiy jazoning turlari


- Jarima
- Xizmat bo‘yicha cheklash
- Intizomiy qismga jo‘natish
- Ozodlikdan mahrum qilish
- Ozodlikni cheklash
- Axloq tuzatish ishlari
- Muayyan huquqdan mahrum qilish
- Majburiy jamoat ishlari
- Umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Xulosa qiling

Sud hukmi bilan, asosiy jazolardan tashqari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo‘shimcha jazo ham qo‘llanilishi mumkin. Xizmat bo‘yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo‘natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi mumkin.

Jarima jazosi ham jinoyat, ham ma’muriy huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladi.



Brainring daqiqa

Jinoyat sodir etganlik uchun jarima **(O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bo‘yicha)**	Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jarima **(O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bo‘yicha)**
Davlat hisobiga aybdordan belgilangan miqdorda pul undirish jarima hisoblanadi.	
Jarima bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 600 baravarigacha miqdorda belgilanadi.	Fuqarolarga solinadigan jarimaning eng ko‘p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan, mansabdor shaxslarga esa 10 baravaridan oshmasligi kerak.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to‘lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalb qilishdan iboratdir. Mahkum ishlayotgan yoki o‘qiyotgan bo‘lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o‘qishdan bo‘sh vaqtda o‘taladi. Majburiy jamoat ishlari qonunchilikda belgilangan muddatga tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining muayyan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdir. Axloq tuzatish ishlarini o‘tash muddati sud tomonidan belgilanadi.

Ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat.


Xizmat bo‘yicha cheklash — harbiy xizmatni shartnoma bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilishda ifodalanadi. Bu holatda harbiy xizmatchining ish haqi davlat daromadi hisobiga ushlab qolinadi.

Intizomiy qismga jo‘natish — muddatli harbiy xizmat xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan maxsus harbiy qismga joylashtirishdir.

Ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.

Jinoyat sodir etganlik uchun jazo faqat tegishli jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan belgilanadi.

MA’MURIY JAZO TURLARI



Xulosa qiling

Ma’muriy huquqbuzarlik uchun jazo tegishli sudlar va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan belgilanadi.

Jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik uchun jazo turlarini qisqacha muhokama etgach, intizomiy jazo turlari haqida ham alohida so‘z yuritish mumkin. Ish beruvchi mehnat intizomini buzganligi uchun xodimga intizomiy jazo choralarini qo‘llashda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga asoslanadi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz




Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati u qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodimga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Bunda intizomiy jazo ish beruvchining buyrug'i chiqmasidan avtomatik tarzda tugallanadi.

Ish beruvchi intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, xodimning bevosita rahbarining, kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasiga, shuningdek, xodimning iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega. Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

INTIZOMIY JAZO TURLARI



Ish beruvchi jarima, hayfsan va mehnat shartnomasini bekor qilishdan boshqa jazo chorasini qo'llashga haqli emas. Lekin xodimning samarali faoliyati uchun rag'batlantirish turlari chegaralanmagan.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Ma'muriy qamoq va ozodlikdan mahrum qilishning o'zaro farqlari nimada?
2. Qaysi holatda jazo og'irroq bo'ladi: jinoyat sodir etganlikdami yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlikdami?
3. Ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazoni faqat sud belgilaydimi? (Misol uchun, yo'l qoidalariga amal qilmaslikda.)
4. Jinoyat uchun jazo belgilashda mamlakatimizda qaysi qonun hujjatidan foydalaniladi?

Izlanishda davom eting

Akobir ismli bolaning otasi o'g'liga bundan buyon maktabga bormasdan faqat sport bilan shug'ullanishni tayinladi. U kelajakda jahon va olimpiada chempioni bo'lishi uchun butun kunini jismoniy mashqlarga bag'ishlashi lozimligini ta'kidladi.

1. Ota-onalar bolaning ta'lim olish huquqini cheklashga haqlimi?
2. Akobirning otasi bunday harakatlari uchun qanday javobgarlikka tortilishi mumkin?



25–26-DARS. IJODIY FAOLIYAT

Quyida berilgan ta’riflarni javoblar bilan moslashtiring.

1-jadval

1	Huquqiy munosabat —	A	huquqiy munosabatlarning obyektidir.
2	Huquqiy munosabat ishtirokchilarining diqqati qaratilgan aniq narsa —	B	huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquq normasiga asosan bajarishi lozim (bajarilishi o‘ziga bog‘liq) bo‘lgan harakati yoki ularning ma’lum harakatlarni amalga oshirilishini talab qilish vakolati.
3	Huquq va majburiyat egalari huquqiy munosabatlarning subyektlari —	D	kishilar o‘rtasidagi huquqiy aloqalardir. Huquqiy munosabatlarda kamida ikki tomon ishtirok etadi. Birinchi tomon — huquq egasi, ikkinchi tomon — majburiyatni bajaruvchi.
4	Subyektiv huquq tushunchasi —	E	huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari.
5	Yuridik majburiyat —	F	huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan bir-birlari oldida bajarishlari lozim bo‘lgan burchi (majburiyati) yoki ba’zi harakatni sodir etishdan o‘zlarini tiyishlari.

2-jadval

1	Fuqaroning huquq layoqati —	A	fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati.
2	Muomala layoqati —	B	majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.
3	Yuridik shaxs —	D	tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

4	Huquqbuzarlik —		E	bunda huquqbuzar jamiyat qadriyatlarini top-taydi, inson hayotiga suiqasd qiladi, davlat va insonlarga zarar keltiradi, ularning mol-mulki nobud bo‘lishiga olib keladi hamda noxush hodisalar keltirib chiqarib, jamiyat a’zolari manfaatiga zid ishni amalga oshiradi.
5	Ijtimoiy xavflilik —		F	o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan shaxsning huquqqa zid xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir.

3-jadval

1	Huquqqa zidlik —		A	o‘z xatti-harakatini tushunadigan va unga javob bera oladigan insonning huquqqa zid, qonun talablariga qarshi xatti-harakatidan kelib chiquvchi aybidir.
2	Ayblilik —		B	huquqbuzarning qonun yoki huquq normalari belgilab qo‘ygan majburiy talablarni buzishi.
3	Jazoga loyiqlik —		D	insonlarning mulkiga yoki shaxsiga qarshi qonunga xilof harakat (yoki harakatsizlik) natijasida yetkazilgan zarar.
4	Intizomiy huquqbuzarlik —		E	har qanday huquqbuzarlik sodir etgan shaxs-ning vakolatli davlat organi tomonidan javob-garlikka tortilishi.
5	Fuqaroviy huquqbuzarlik —		F	xizmat burchini bajarib turganda har qanday mehnatda majburiy bo‘lgan mehnat tartib-qoidalarining va rahbarlikka bo‘ysunish tamoyillarining buzilishi.

4-jadval

1	Jinoiy huquqbuzar-lik —		A	huquqbuzarning huquqqa xilof xatti-harakatiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatiga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik ko‘rinishidagi munosabati.
2	Ayb —		B	aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik).
3	Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni —		D	bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisi.

4	Qasd —		E	bu huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs, ya’ni huquqbuzardir. Faqat o‘z qilmishiga javob bera oladigan, aqli raso shaxsgina shunday subyekt sifatida tan olinadi.
5	Huquqbuzarlik subyekti —		F	shaxsning huquqqa xilof xatti-harakatni sodir qilayotganida bu harakat (harakatsizlik)ning huquqqa xilofligini, ijtimoiy xavfliligini, uning oqibatini anglashi yoki tushunishi yoki bu munosabatning ma’lum oqibatni keltirib chiqa-rishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yishi tushuniladi.

5-jadval

1	Huquqbuzarlik obyekti —		A	huquqbuzarlik subyektidir.
2	Huquqqa zid aybli qilmishni sodir etgan shaxs —		B	shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik.
3	Ma’muriy huquqbuzarlik —		D	huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan, huquqbuzarni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasi.
4	Jazo —		E	fuqaro voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi.
5	Muomala layoqati —		F	bu huquq bilan tartibga solinadigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Respublika
Ta'lim Markazi



IV BOB

VOYAGA YETMA-GANLARNING HUQUQ VA BURCHLARI

27-DARS. FUQAROLIK QONUNCHILIGIDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARI

Tolibman deb yururlar, ko'nglida yo'q zarra nur,
Chin tolibni so'rasang, ich-u tashi guhar, dur.

Ahmad Yassaviy

Faollashtiruvchi savollar

1. Siz "fuqaro", "fuqarolik" kabi so'zlarni eshitganmisiz? Bu so'zlar qanday holatlarda qo'llaniladi?
2. Voyaga yetmagan shaxslarni fuqaro deyish mumkinmi? Nima uchun?
3. Rasmlarda tasvirlangan oiladagi insonlarning huquqlari orasida qanday farqlar bo'lishi mumkin? Javobingizni asoslang.
4. Sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatlari uchun ularning javobgarligida ham farq bo'lishi mumkinmi?
5. Rasmdagi shaxslarning fuqaroligini tasdiqlovchi qanday hujjatlari bo'lishi kerak?
6. Ularning qanday fuqarolik huquqlari bor?



Qonun belgilaydi

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar bitimlarni o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim keyinchalik shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysi yozma ravishda ma’qullaganidan so‘ng, u ham haqiqiy hisoblanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;

2) fan, adabiyot yoki san’at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;

3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;

4) mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 27-modda


Fikrimizni tasdiqlaymiz

Bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo‘lish huquqiga egadirlar. Bolalarning qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan, shuningdek, shaxsiy mehnat faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o‘quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Huquq tarmoqlari mavzusida qayd etilganidek, fuqarolik huquqi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Bolalarning hadya, meros olishi aynan fuqarolik huquqiy munosabatiga kirisha olishini anglatadi. Bolaning sha’ni, qadr-qimmatiga nisbatan yoki ma’naviy tomondan zarar yetkazilganda fuqarolik huquqi bola huquqlarini himoya qiladi.

Masalan, Abrorjon ismli bola 15 yosh. U she’r yozdi. Lekin uning she’rini Akobirjon ismli o‘rtog‘i olib, o‘z nomidan nashr etdi. Bunday holatda fuqarolik huquqi Abrorjonning mualliflik huquqini himoya qiladi.



Hamkorlikda bajaramiz

1. Bolalar tomonidan maishiy bitimlar (masalan, do‘kondan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish kabilar)ni tuzishda qanday huquq va majburiyatlar yuzaga keladi?

2. 16 yoshli bola mehnat faoliyatidan daromad oldi. Uning daromadidan o‘z ota-onasi foydalanishi mumkinmi? Fikringizni asoslang.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi fuqarolik qonunchiligi, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarining, intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarining vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo‘ladilar.

Fuqarolik qonunchiligida fuqaro va jismoniy shaxs degan tushunchalar ham mavjud. Bunda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Fuqaroning huquq layoqati qachondan e’tiboran vujudga keladi va qachon tugaydi?

2. Fuqaroning muomala layoqati qachondan e’tiboran vujudga keladi va qachon tugaydi?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar mustaqil ravishda bir nechta bitimlarni tuzishlari mumkin.

Quyidagilarni bunga misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin:

– mayda maishiy bitimlar (masalan, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish yoki arzon o‘yinchoqlar sotib olish);

– bepul foyda ko‘rishga qaratilgan bitimlar (bunday bitimlar notarial tasdiqlanmaydi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaydi, masalan, imtihonlardan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligi uchun ota-onasidan hadya olish).

16 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonunda ko‘rsatilgan shartlar asosida ishlayotgan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u sud qarori bilan to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin. Bu fuqarolik huquqida **“emansipatsiya”** deb yuritiladi.

Bu holatda ota-ona, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmaganning majburiyatlari bo‘yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar.

Yodda tuting

Emansipatsiya *— lotincha “emancipatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “qaramlikdan ozod bo‘lish” degan ma’noni anglatadi.*

Muomalaga to‘liq layoqatli deb e’lon qilingan shaxs to‘liq hajmda fuqarolik huquqlariga ega hisoblanadi hamda o‘zi yetkazgan zarar uchun o‘zi javobgar bo‘ladi. Ammo qonunchilikda yosh cheklovi bilan cheklangan qator burch va huquqlar mavjud. Masalan, emansipatsiya qilingan voyaga yetmagan fuqaro alkogol mahsulotlari iste’mol qilishga haqqi yo‘q, homiy yoki vasiy bo‘la olmaydi. Jinoyat sodir etganida unga nisbatan voyaga yetganlar uchun nazarda tutilgan jinoiy jazo choralari qo‘llanilmaydi.

Izlanishda davom eting

1. 15 yoshli Nazira yozgi ta’til kunlarida bolalar oromgohiga tarbiyachi yordamchisi bo‘lib ishga kirmoqchi. 14 yoshli Zokir mahalladagi do‘konda yuk tashuvchi bo‘lib, 16 yoshli Salim esa yengil avtotransport vositalarini tuzatish ustaxonasida usta yordamchisi bo‘lib ishlamoqchi.

Ularning ishga kirishlari uchun qanday huquqlari bor? Ularning ish beruvchilar mulkiga yetkazgan zarari kim tomonidan qoplanadi?

2. 16 yoshli Lola tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi. U 18 yoshga to‘lmasdan turib o‘z faoliyatini boshlashi mumkinmi? Lolaga huquqiy maslahat bering.

3. Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga binoan, voyaga yetmaganlarning muomala layoqati asosida to‘ldiring.

6 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar	**14 yoshdan 18 yoshgacha** bo‘lgan voyaga yetmaganlar	**18 yoshga to‘lgan** voyaga yetganlar

28-DARS. JINOYAT QONUNCHILIGIDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Zahiriddin Muhammad Bobur

Faollashtiruvchi savollar

Janob Sinchkov va uning qo‘l ostidagi ichki ishlar organi xodimlari boshidan o‘q yeb vafot etgan shaxsning uyiga kirib kelishdi. Jasadning bir qo‘lida ovoz yozgich (diktafon), ikkinchi qo‘lida qurol bor edi.

Ichki ishlar organi xodimlari darhol ovoz yozgich tugmasini bosishdi.

Unda: “Menda yashashga umid qolmadi, men boshqa davom eta olmayman”, — so‘zlari va shundan so‘ng o‘q ovozi eshitildi.


Ovoz yozgichdagi xabarni tinglaganidan keyin janob Sinchkov bu o‘z joniga qasd qilish emasligini aniq anglab yetdi.

Savol: Janob Sinchkov nega bunday qarorga keldi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Huquqbuzarliklar ichida jamiyatga katta zarar yetkazadigani — bu jinoiy huquqbuzarlikdir. U Jinoyat kodeksida taqiqlangan qilmish sodir etilgan taqdirdagina qo‘llaniladigan javobgarlikning eng og‘ir turidir. Jinoyat — bu o‘zining maxsus belgilariga ega bo‘lgan huquqbuzarlikdir.

Jinoyat — bu O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.



Hamkorlikda bajaramiz

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarni aniqlang.

2. Jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to‘lgan voyaga yetmaganlar qanday jinoyatlarning subyektlari bo‘lishlari mumkin?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Quyidagi belgilar jinoyat va boshqa huquqbuzarlik o‘rtasidagi chegaraviy farqlarni bildiradi:

1) huquqbuzarlikning obyekti;
2) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati (xarakteri);
3) huquqqa xiloflilik shakli;
4) yetkazilgan zararning miqdori.

Huquqbuzarlikning obyekti qilmishning jamiyatga, ijtimoiy munosabatlarga ta’siri orqali uning ijtimoiy xavflilik xarakterini belgilash imkonini beradi.

Jinoyat **ijtimoiy xavflilik darajasi** va xususiyatiga ko‘ra, jamiyatga ma’lum bir darajada ijtimoiy xavfli bo‘lgan boshqa huquqbuzarliklardan ko‘ra ko‘proq zarar yetkazishi bilan ajralib turadi.

Jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlovchi yana bir belgi — uning **huquqqa xiloflilik xususiyati** hisoblanadi. Jinoyatlar uchun javobgarlik jinoyat qonuni bilan tartibga solinadi. Ya’ni shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish uchun albatta jazo belgilanadi.

Yetkazilgan zararning miqdori deyilganda Jinoyat kodeksida belgilab berilgan miqdor nazarda tutiladi.

Qonun belgilaydi

Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir, o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 15-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Ma’lum bir ijtimoiy qilmishni jinoyat deb xarakterlovchi obyektiv va subyektiv belgilarning minimal va yetarli yig‘indisi **jinoyat tarkibini** bildiradi. Jinoyat tarkibi ijtimoiy xavfli qilmishlarni bir-biridan farqlashda muhim ahamiyatga egadir. Masalan, **o‘g‘rilik** birovning mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda namoyon bo‘lsa, **talonchilik** o‘zganing mulkini ochiqdan ochiq talon-taroj qilishdir.

Jinoyat tarkibining to‘rt belgisi quyidagi elementlar orqali ta’riflanadi. Obyektiv belgilar — jinoyat obyekti va obyektiv tomoni, subyektiv belgilar — jinoyat subyekti va subyektiv tomoni.

Jinoyat obyekti — jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar. Ya’ni jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan har qanday ijtimoiy munosabat jinoyatning umumiy obyekti hisoblanadi.

Masalan, o‘g‘rilik jinoyatining obyekti o‘zganing mulkidir. Yoki odam o‘ldirish jinoyatining obyekti boshqa kishining hayoti hisoblanadi.

Jinoyat obyektini aniqlash orqali aybdor qanday jinoyat sodir etganligi aniqlanadi. Jinoyat obyekti (masalan, o‘g‘rilik, haqorat qilish, sog‘liqqa ziyon yetkazish va hokazolar) har bir jinoyatning zaruriy elementidir.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Voyaga yetmaganning jinoyati haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning qatnashishi shart.

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bo‘yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilish paytidan boshlab yo‘l qo‘yiladi.

Voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilishdan boshlab surishtiruvchi yoki tergovchi ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘radi. Shu maqsadda voyaga yetmagan shaxsga va uning qonuniy vakiliga o‘zlari xohlagan himoyachini taklif etish huquqiga ega ekanligi tushuntiriladi. Agar himoyachi voyaga yetmagan shaxsning, uning qonuniy vakilining yoxud boshqa shaxslarning topshirig‘i yoki roziligi bilan chaqirilmagan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini o‘z tashabbusi bilan ta’minlashga majbur.

Hamkorlikda bajaramiz

Elyor ismli shaxs Mohigul ismli shaxsning shaxsiy fotosuratlari va videotasvirlarini qo‘lga kiritib, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatib yuborish tahdidi bilan bir necha bor qo‘ng‘iroq qildi. U Mohiguldan katta miqdordagi pulni “Qorasuv” internet do‘konida qabul qilayotganda qo‘lga tushirildi.

1. Yuqoridagi vaziyatda qanday jinoyat tavsiflangan?
2. Mazkur jinoyatning subyekti, obyekti, subyektiv tomoni hamda obyektiv tomonini tahlil eting.
3. Talonchilik va tovlamachilik jinoyatlarining qanday farqlari mavjud? Fikringizni amaliy misollar bilan asoslang.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Jinoyat subyekti jinoyat tarkibining zaruriy elementidir. Ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladi. Jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 17-moddasida jismoniy shaxslarning javobgarligi belgilangan. Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladi.

O'g'rilik jinoyatining subyekti 14 yoshga to'lgan aqli raso shaxsdir.

Qonun belgilaydi

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini so'roq qilishda surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra yoxud voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosiga binoan pedagog va (yoki) psixolog ishtirok etishi mumkin. Pedagogning va (yoki) psixologning ishtirokini ta'minlash jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudning zimmasiga yuklatiladi. Pedagog va (yoki) psixolog surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga savollar berishga, so'roq tugaganidan so'ng esa so'roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to'g'riligi va to'liqligi haqida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon etishga haqlidir. Bu huquqlar surishtiruvchi, tergovchi tomonidan pedagogga va (yoki) psixologga voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishdan oldin tushuntiriladi va bu haqda so'roq bayonnomasida qayd qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 554-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Jinoyatning subyektiv tomoni. Jinoyatning subyektiv tomoni deyilganda, aybdor shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining muhim xususiyatlaridan biri — subyektning aqli rasoligi, ya'ni aybdorning o'z harakatini boshqara olganligi va harakati tufayli kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy xavfliligini anglashidir.

Ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilishi mumkinligi qayd etiladi.

Masalan, o'g'rilik jinoyatini hech kim ehtiyotsizlik oqibatida sodir etmaydi. O'g'rilik **to'g'ri qasd** bilan, ya'ni kimningdir mulkiga ega bo'lish maqsadida sodir etiladi. Uni sodir etgan shaxs o'z qilmishining o'g'rilik ekanligini biladi, unga tayyorgarlik ham ko'rishi mumkin. Ya'ni kimningdir mol-mulkiga ega bo'lishni xohlagan bo'ladi.

O'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi vaziyatlar bilan tanishing. Ularning qaysi biri qasddan, qaysi biri ehtiyotsizlik orqasidan sodir bo‘lganligini aniqlang.

1. Nodira o‘ziga ortiqcha ishonishi oqibatida svetoforning sariq chirog‘ida to‘xtamasdan chorrahadan o‘tib ketdi. Natijada avtotransport hodisasiga sabab bo‘ldi.

2. 2019-yilning 20-fevral kuni Buxoro shahrining Sheyxon ko‘chasida yashovchi Shermatovlar uyida yong‘in sodir bo‘lgan. Yong‘in nazoratsiz qoldirilgan qizaloqning gugurt o‘ynaganligi oqibatida kelib chiqqanligi aniqlangan.

3. 2019-yil 22-fevral kuni 2 noma’lum shaxs Toshkent viloyatining Bekobod tumanida yashovchi Malika (ismli ayol)ning uyiga o‘zlarini tuman gaz filiali xodimlari deb tanishtirib kirib, kuch ishlatish orqali ayoldan pul talab qilgan va uyda pul yo‘qligini bilishgandan so‘ng voqea joyidan yashiringan.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

– jarima;
– majburiy jamoat ishlari;
– axloq tuzatish ishlari;
– ozodlikni cheklash;
– ozodlikdan mahrum qilish.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas.

Izlanishda davom eting

1. Ijtimoiy xavfli qilmish deganda nimani tushundingiz? Jinoyat qonuni nima?

2. Voyaga yetmaganlik nima? Voyaga yetmaganlar necha yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin?

3. Ushbu vaziyatlarning subyektlari kimlar bo‘lishi mumkin? Jinoyat obyektlarini aniqlang.

– 2019-yil 16-fevral kuni noma’lum shaxslar Namangan shahri “Gulshan” mahallasida yashovchi Akmalning uyiga kirib, xonadondagi chet el valutasi, zargarlik buyumlari va turli xil idish-tovoqlarni o‘g‘irlab ketgan.

– 2019-yilning 19-fevral kuni Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida yashovchi Abror uyi oldida o‘zaro janjallashish oqibatida qo‘shnisi Alisherning oyoq qismiga tepib jarohat yetkazgan.

29–30-DARS. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARNING JAVOBGARLIGI

G‘azab vaqtidagi ozgina sabr minglab afsuslarning oldini oladi.

Ali ibn Abu Tolib

Faollashtiruvchi savollar

1. Nima deb o‘ylaysiz, jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari qanday himoya qilinadi?
2. Voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etsa, unga nisbatan ayb qanday e’lon qilinadi? Bu jarayonda kimlarning ishtiroki talab etiladi?
3. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar haqida eshitganmisiz?
4. Qonuniy vakil deganda nimani tushunasiz? Kimlar voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy vakili bo‘lishi mumkin?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Jinoyat qilgunga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo‘yilgan qoidalar asosida tashkil qilinadi.

Qonun belgilaydi

O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan belgilanadi.

Jinoyat ishlarini yuritishning ushbu kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek, fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 1-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Surishtiruv, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganni ayblash va hukm qilish uchun quyidagi asoslar bo‘lishi zarur:

1) jinoyat obyekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;

2) sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek, Jinoyat kodeksida ko‘rsatib o‘tilgan boshqa holatlar; qilmish va ro‘y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish;

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;

4) jinoyat to‘g‘ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o‘z-o‘ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;

5) ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.

Bundan tashqari, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda quyidagilar ham isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmagan ayblanuvchining aniq yoshi (tug‘ilgan yili, oyi, kuni);

2) voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;

3) uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshli guvohlar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi.

O‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish uning qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi. Ko‘rsatilgan shaxslar so‘roq qiluvchining ruxsati bilan guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin.

O‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvohlar va jabrlanuvchilar ko‘rsatma berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg‘on ko‘rsatma berganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilmaydilar, biroq surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchi shu guvoh va jabrlanuvchilarga ularning protsessual huquqi va majburiyatlarini tushuntirish chog‘ida haqqoniy ko‘rsatma berish va bu bilan jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga ko‘maklashish ma’naviy burch ekanligini eslatib o‘tadi.



Hamkorlikda bajaramiz

1. Nima deb o‘ylaysiz, jinoyat sodir etgan shaxsning yoshini aniqlash nima uchun zarur?
2. Voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligini aniqlash nima uchun kerak?
3. Katta yoshli guvohlar va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo‘qligi deganda nimani tushundingiz?

Qonun belgilaydi

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 27-modda

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 28-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bo‘yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilish paytidan boshlab yo‘l qo‘yiladi.

Voyaga yetmaganning jinoyatlari haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning yoki vasiylik va homiylik organi vakilining qatnashishi shart. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishda himoyachi ham ishtirok etishi lozim.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak.

Sud voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar ko‘riladigan vaqt va joy haqida ularning ota-onasini, ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarni, voyaga yetmaganlar

o‘qigan yoki ishlagan korxonani, muassasani, tashkilotni, zarur bo‘lsa, boshqa tashkilotlarni ham xabardor qiladi. Sud bu tashkilotlarning vakillarini, sudlanuvchining vasiy yoki homiysini sud majlisiga chaqirishga haqlidir.

Brainring daqiqa

Voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so‘roq qilishdan boshlab ishda himoyachi ishtirok etishi shart. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlashi majburiy. Voyaga yetmagan shaxsga ayblov e’lon qilish vaqtida himoyachi bilan bir qatorda voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili ham ishtirok etishi zarur.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Quyidagilarga asosan, ya’ni:

- ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo‘yin tovlamasligini ta’minlash;
- uning bundan keyingi jinoiy faoliyatining oldini olish;
- uning ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- tibbiy muassasaga joylashtirilishini kutayotgan shaxslarga ekspertiza o‘tkazish;
- aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxslarga tekshiruv o‘tkazish;
- qochib ketishining va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishining oldini olish;
- tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash haqidagi sud ajrimining ijrosini ta’minlash maqsadida voyaga yetmaganlarga ehtiyot choralaridan biri qo‘llaniladi.

Voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan ehtiyot choralariga quyidagilar kiradi:

- munosib xulq-atvorda bo‘lish to‘g‘risida tilxat;
- shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi;
- garov;
- uy qamog‘i;
- qamoqqa olish;
- voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish.

Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o‘zida ana shu choralardan faqat bittasi qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Voyaga yetmagan shaxs ota-onasining, homiylar, vasiylarning qaroviga yoki basharti u bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa, shu muassasa rahbarlarining qaroviga ham berilishi mumkin.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralari qo‘llanilgani to‘g‘risida uning qonuniy vakiliga, agar bunday vakil bo‘lmasa, boshqa qarindoshlariga xabar qilinadi.

Izlanishda davom eting

Sud muhokamasi jarayonida voyaga yetmagan shaxs qanday huquqlarga ega bo‘ladi?



1. Zokir ismli voyaga yetmagan shaxs jinoyatda gumon qilinib tergov idorasiga keltirildi va qonuniy vakillarsiz kun davomida so‘roq qilindi. Bu haqda uning yaqinlari xabardor etilmadi.

Bu vaziyatda Zokirning qanday huquqlari buzilgan? Zokir tergov jarayonida qanday huquqlardan foydalanishi mumkin?

2. O‘zbek millatiga mansub bo‘lgan Komil ismli voyaga yetmagan shaxs tergov jarayoniga jalb etildi. Tergovchi unga faqat rus tilida savol berdi. U o‘zbek mahallasida yashagani va o‘zbek sinfida o‘qigani, rus tilini yaxshi bilmagani uchun tergovchining savollariga javob bera olmadi. Komilning huquqlari buzilganligini isbotlab bering.



Hamkorlikda bajaramiz

5 ta jamoaga bo‘lining. 1 dan 5 gacha raqamlarni yopiq tanlash yo‘li bilan tanlab oling. Tanlagan raqamingizdagi vaziyatni tahlil qiling. Jadvalni oldindan tayyorlangan A4 formatli qog‘ozga chizib to‘ldiring.

Topshiriq talabi	Tahlil	Misol
Vaziyat obyektini aniqlab bering.		
Vaziyatning obyektiv tomonini ochib bering.		
Vaziyat subyektini ochib bering.		
Vaziyatning subyektiv tomonini ochib bering.		
Huquqbuzarlik belgilarini ko‘rsatib bering.		
Voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni ochib bering.		
Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini so‘roq qilish shartlarini ochib bering.		
Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi shaxslarni so‘roq qilishda qanday qoidalarga rioya qilinishi lozim?		
Berilgan vaziyatning oldini olish uchun 2 tadan taklif tayyorlang va ularni asoslab bering.	1.	
	2.	

1. Voyaga yetmagan 15 yoshli V. ismli shaxs tog‘asi uyida yo‘qligida uning avtomobili kalitini olib, Angliyadan qaytayotgan do‘stini kutib olish uchun aeroportga jo‘nadi. Ishdan kelgan tog‘asi avtomobili g‘oyib bo‘lganini ko‘rdi va darhol tuman Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatiga xabar berdi. Do‘stini kutib olgan V. biroz vaqtdan so‘ng tog‘asining uyiga qaytayotganda qo‘lga olindi.

2. Voyaga yetmaganlar S. (13 yosh) va uning ikki tanishi P. (15 yosh) va K. (17 yosh) uylarining yo‘lagi oldida turishgan edi. Ular qo‘shnisi keksa fuqaro N.ning uyidan chiqayotganini ko‘rib, o‘rtalaridagi munosabat yaxshi bo‘lmaganligi uchun uning ta’zirini bermoqchi bo‘ldilar. P. uni oyog‘idan chalib yiqitdi. Fuqaro N. sarosimaga tusha boshladi. S. va K. esa bu jarayonni qo‘l telefonlariga suratga olib, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga joylashtirdi.

3. 17 yoshli I. ismli shaxs Toshkent – Termiz yo‘nalishi bo‘yicha yuradigan avtobusga chiqib, yo‘lovchilarga tazyiq o‘tkazib, pullarini tortib oldi.

4. Voyaga yetmagan N. ismli shaxs ishlab chiqarish korxonasidan chiqarilgan chiqindilarni belgilangan o‘raga to‘kmasdan, o‘sha yerga yaqin bo‘lgan suv havzasiga oqizib yuborishi natijasida qishloqda yuqumli kasallik epidemiyasining tarqalishiga sabab bo‘ldi, shuningdek, chorva mollarining ham kasallanishiga olib keldi.

5. Mamlakat terma jamoasi navbatdagi o‘yinda 2:0 hisob bilan mag‘lubiyatga uchradi. Shundan keyin terma jamoa ishqibozlari tomonidan to‘s-to‘polon boshlandi. Tartibsizlikda voyaga yetmagan 15 yoshli L. va 14 yoshli Z. bir nechta katta do‘konlarning oynalarini tosh otib sindirdilar.


Faollashtiruvchi savollar

1. Berilgan vaziyatlarni tahlil qiling. Huquqbuzarliklarning subyektlarini aniqlang.
2. Agar ular jinoyat subyektlari bo‘lmasa, unda ularning bu xatti-harakati qanday jazolanadi?

– 13 yoshli o‘smirlar Z. va G. tortishib qolishdi. Z.dan qattiq jahli chiqqan G. Z.ning otasining ko‘chada turgan avtomobili oynasini tosh bilan sindirdi.



– 14 yoshli Malika onasining kiyim do‘konida model bo‘lib ishlardi. Xaridorlar ko‘payib ketganida biroz savdoga ham qarashib turardi. Natijada Malika muntazam dars qoldira boshladi.




– 13 yoshli S. va 14 yoshli A. ismli shaxslar kompyuter dasturlari orqali fuqarolarning mablag‘larini plastik kartalardan yechib oldilar.




– 14 yoshli X. ismli shaxs pirotexnika buyumlarini davlat chegarasidan noqonuniy yo‘llar bilan olib kirish jarayonida qo‘lga tushdi.



– 12 yoshli J. ismli shaxs maktabdagi sport zali kiyinish xonasida hech kim yo‘qligidan foydalanib sinfdoshlarining pullarini va qo‘l telefonlarini olib qo‘yayotganida qo‘lga tushdi.



– 13 yoshli A., K. va B. ismli shaxslar dalada gulxan yoqdilar. Tez orada olovni boshqarib bo‘lmay qoldi va u shamolning ta’sirida ekin maydonlariga tarqala boshladi.



Brainring daqiqa

Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik ma’muriy javobgarlikka asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 47-modda

Qonun belgilaydi

Ma’muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 10-modda

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, 14-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Har bir ta’lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalari mavjud.

Ushbu qoidalarga ko‘ra, o‘quvchilarning haqorat qilish va behayo so‘zlarni ishlatishi taqiqlanishi belgilab berilgan. Shuningdek, ichki tartib-qoidalarni buzgan shaxslarga nisbatan quyidagi choralarni ko‘rish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi:

1. O‘quvchining qog‘oz yoki elektron kundaligiga tanbeh yozish.
2. Qoida buzilish holatlari takroran kuzatilganda o‘quvchini muassasa ichki nazorat ro‘yxatiga olish va yakka tartibda shug‘ullanish.
3. Ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ni muassasaga taklif qilish, “Oila — mahalla — ta’lim muassasasi” hamkorligi jamoat kengashi doirasida muhokama qilish.
4. Farzandi tarbiyasiga mas’uliyatsizlik bilan yondashayotgan ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ning ish joyiga yoki mahalla fuqarolar yig‘iniga ma’lumot yuborish.
5. Ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ga nisbatan muassasaga biriktirilgan inspektor-psixolog tomonidan tegishli ma’muriy javobgarlik choralarini qo‘llash.

Qonun belgilaydi

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

– bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar;
– ichki ishlar organlari;
– ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
– vasiylik va homiylik organlari;
– sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;
– mehnat organlari.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilmagan organlar hamda muassasalar voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni, 8-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Davlat sudga qadar ish yuritishning va sud muhokamasining barcha bosqichlarida bolalarning qonunchilikda belgilangan barcha protsessual huquqlariga rioya etilishi hamda bu huquqlar kafolatlarining ta’minlanishi bo‘yicha choralar ko‘radi.

Bolaga har qanday ruhiy yoki jismoniy ta’sir o‘tkazish, uni ko‘rsatmalar berishga yoki aybini tan olishga majburlash taqiqlanadi.

Huquqbuzarlik 16 yoshga to‘lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim.

Sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi jarayonida bolalarga nisbatan ular qonuniy vakillarining ishtirokisiz amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni bajarish taqiqlanadi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmagan shaxsga nisbatan protsessual harakatlar uning katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki ushbu shaxsning boshqa qonuniy vakili ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsning jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudga qadar ish yuritishning va sud muhokamasining barcha bosqichlarida himoyachining ishtirok etishi shart. Bolaning va uning qonuniy vakillarining himoyachidan voz kechishi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Qonunchilikda jinoyat protsessining ishtirokchilari bo‘lgan bolalar uchun boshqa kafolatlar ham nazarda tutilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni, 11^1-modda

Hamkorlikda bajaramiz

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.



1. Yuqoridagi matnda keltirilgan “yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari” degan so‘zlarning mazmunini tushuntiring.

2. Maktabingizda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga oid o‘tkaziladigan tadbirlarda qanday ishtirok etasiz? Bu tadbirlarda sizning ishtirokingiz nimadan iborat?

Izlanishda davom eting

1. O‘zingiz ta’lim olayotgan muassasaning ichki tartib qoidalari bilan yana bir bor tanishib chiqing va quyidagi jadvalni daftaringizga chizib, to‘ldiring.

№	Mening huquqlarim	Mening majburiyatim	Ta’lim muassasasining huquqi	Ta’lim muassasasining majburiyati
1.				
2.				
3.				
4.				

2. Siz qaysi majburiyatlaringizni bajaryapsiz? Ularni alohida rang bilan belgilang.

3. Ta’lim muassasasining huquqlarini to‘liq hurmat qilyapsizmi? Ta’lim muassasasining qaysi huquqlariga rioya qilyapsiz? Qaysilarini, aksincha, poymol etyapsiz? O‘ylab ko‘ring, bunday holatlarning oldini olish uchun nima qilish kerak?

4. Ota-onangizning yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning sizga bo‘lgan ishonchlarining asosini nima tashkil etishini o‘ylab ko‘ring. Ular sizning kelajagingizdan nimani umid qilishadi?

5. Ota-onasini yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni o‘zining nojo‘ya harakati sabab ko‘pchilik orasida uyatga qo‘ygan farzandlarga nima degan bo‘lardingiz? Bunday holatlarning oldini olish uchun qanday yo‘l tutishni maslahat bergan bo‘lardingiz?


6. Quyidagi vaziyatlarni tahlil qiling. Qanday huquqlar buzilgan deb o‘ylaysiz? Ustozlarning harakatlarida huquqbuzarlik alomatlari bormi? Siz ustozlarning o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?



– 12 yoshli Zokir matematika darsida qo‘l telefonida o‘yin o‘ynab o‘tirgandi. Ustozi uning telefonini olib qo‘ydi.

– 15 yoshli Ozoda maktabga onasining tilla bilaguzigini taqib keldi. Sinf rahbari bilaguzukni olib qo‘ydi va: “Oying kelib olib ketsin”, — deb aytdi.





15 yoshli Javohir bobosining avtomobilini yuvib kelish bahonasida mahalla yaqinidagi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish shoxobchasiga haydab keldi. Biroq shoxobcha xodimi Javohir hali avtomobil boshqarishga yoshlik qilishini aytib, uning shoxobchadan chiqib ketishiga to‘sqinlik qildi.

31–32-DARS. OILA QONUNCHILIGIDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa.

Arastu

Faollashtiruvchi savollar

1. 15 yoshli Anvarga 5 xonali uy meros bo'lib o'tdi. Anvarning o'gay otasi uyni sotib, shartnomani rasmiylashtirish maqsadida hujjatlarni tasdiqlash uchun notariusga murojaat qildi. Ammo notarius shartnomani rasmiylashtirmadi.

2. 9-sinf o'quvchisi Olimjon "Samsung" rusumli telefonni kreditga olmoqchi bo'ldi. Kredit bo'limi uning talabini qondirmadi. Olimjon kreditga telefon ololmadi.

3. 16 yoshli Nazirani ota-onasi turmushga berishmoqchi. Lekin mahalla fuqarolar yig'ini raisi bu masalaga jiddiy qarshilik ko'rsatdi.

A. Agar Anvarning o'gay otasi sudga shikoyat qilsa, sud qanday qaror chiqarishi mumkin deb o'ylaysiz?

B. Sizning fikringizcha, Anvarning o'gay otasi unga meros qolgan uyni sotish huquqiga egami?

D. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun kredit bo'limi Olimjonning talabini qondirmadi?

E. Nima uchun mahalla fuqarolar yig'ini raisi Naziranin turmushga chiqishiga qarshi bo'ldi? O'zbekistonda nikoh tuzish yoshi necha yoshligini bilasizmi?

F. Vaziyatlardagi holatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari buzildimi?

G. Siz qaysi hollarda o'zingizga tegishli buyumlarni kimgadir sovg'a qilish, sotish yoki shunchaki berib yuborish uchun mustaqil qaror qabul qila olasiz?

H. Oila bilan bo'g'liq munosabatlar qanday tartibga solinadi?

Qonun belgilaydi

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 76-modda

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 77-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlardan tashqari, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega.

Ayrim sabablarga ko‘ra, bolaning ota-onasi bo‘lmaganda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta’minlanadi.

Voyaga yetmagan bola o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlari uning ota-onasi, ota-onasi yo‘q bo‘lsa, ota-onasining o‘rnini bosuvchilar, vasiylik va homiylik idoralari, prokuratura, sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolaning hayoti yoki sog‘ligiga xavf tug‘ilganligidan, uning huquqi va qonuniy manfaatlari buzilganligidan xabardor bo‘lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma’lum qilishi shart. Shunday ma’lumotlarni olgach, vasiylik va homiylik organi bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar ko‘rishi majburiy bo‘ladi. Ota-ona o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘ladigan munosabatlarda, shu jumladan, sudda alohida vakolatlarsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Hamkorlikda bajaramiz

Quyidagi vaziyatlarga munosabat bildiring.

– Yangi uyga ko‘chganliklari sababli 4-sinfda o‘qiydigan Zarinani ota-onasi boshqa maktabga o‘tkazishmoqchi. Otasi bu masalada avval Zarinaning fikrini bilish zarurligini aytdi. Onasi esa maktab uzoqligini, uning fikrini bilish shart emasligini ta’kidladi. Shunday bo‘lsa-da, otasi Zarinani ogohlantirish va unga vaziyatni tushuntirish zarurligini bildirdi.

– 12 yoshli Abbosning ota-onasi bobosining nomini abadiylashtirish uchun barcha oila a’zolarining familiyasini o‘zgartirishmoqchi. Bu haqda Abbosga aytib ham o‘tirishmadi.

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Oilada voyaga yetmagan bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma’muriy muhokama davrida so‘zlashga haqlidir.

Har qanday ota-ona o‘z farzandlariga o‘zaro kelishib, yoki yaqin qarindosh-urug‘lari maslahati bilan ota-onasining ismiga moslab, yoki o‘zlari xohlagan boshqa ismni qo‘yishlari mumkin. Odatda, bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Agar ota-ona turli familiyalarda bo‘lsa, ularning kelishuviga binoan, bolaga otasining yoki onasining familiyasi berilishi mumkin. Ota-onaning xohishidan kelib

chiqib, bolaga milliy an'analarga ko'ra, ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolaning familiyasi o'n olti yoshga to'lguncha ma'lum maqsadda ota-onasining birgalikda qabul qilgan qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

Ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

Shuningdek, ota-ona ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga egalik qilish huquqiga ega emas. Voyaga yetmagan bola o'z ota-onasidan yoki boshqa insonlardan qonun doirasida ta'minot olishga haqli. Bunda bolaga tegishli har qanday mablag', xoh u pensiya bo'lsin, xoh boshqa turdagi nafaqa bo'lsin, ota yoki onasi tomonidan uning ta'minoti, ta'lim-tarbiya olishi uchungina sarflanishi kerak bo'ladi.

Qolaversa, ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi ham mumkin. Birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin.

Va nihoyat, voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan, shuningdek, shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Xuddi shu tariqa, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishdagi buyumlari (kiyim-kechak, turli ish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulkidir.

Hamkorlikda bajaramiz

1. Bolalarning voyaga yetgunga qadar ota-onalar tomonidan ta'minlanishi va tarbiyalanishi shartligi konstitutsiyaviy huquq darajasiga chiqarilishining sababi nimada deb o'ylaysiz? Bu hol bizning milliy qadriyatlarimizga mos keladimi?

2. Davlatning boquvchisiz va qarovsiz qolgan bolalarga e'tiborini konstitutsiya orqali mustahkam majburiyatga aylantirishdan jamiyat qanday naf ko'radi? Bunda joriy va kelajakda ko'riladigan natijani alohida ajratib ko'rsatishga harakat qiling.

3. Nima deb o'ylaysiz, sizning shaxsiy buyumlaringizdan oila a'zolaringiz, sinfdosh-laringiz va o'rtoqlaringiz ruxsatsiz foydalanishlari mumkinmi?

4. Sizga sovg'a qilingan pul mablag'lari va buyumlaringizni ota-onangiz erkin tasarruf etishi mumkinmi? Nima uchun?

Qonun belgilaydi

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 78-modda

Fikrimizni tasdiqlaymiz

Nikoh yoshi va oila qurishga bo‘lgan talablar bolalarning ruhiy va jismoniy holati hamda ularning manfaatlarini himoya qilish uchun o‘rnatilgan. Ularning buzilishi esa nikohlanuvchi hayoti yoki sog‘ligiga xavf solishi mumkin. Shu sababdan nikoh tartibini buzish ham ma’muriy, ham jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Katta insonlar singari bolalarga ham shaxsiy daxlsizlik, shu jumladan, shaxsiy hayotiga g‘ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqi berilgan. Ularni unashtirish yoki nikohdan o‘tishga majburlash bola huquqlarini qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Xulosa qiling



O‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishin tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lg‘il, nedinkim sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydur.

Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo‘lur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko‘p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo‘lur.

Kaykovus, “Qobusnoma”

Fikrimizni tasdiqlaymiz

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta’minot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida **vasiylik** belgilanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta’minot, tarbiya va ta’lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida **homiylik** belgilanadi.

Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o‘z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga, bu shaxslarning iltimosiga binoan, homiylik belgilanishi mumkin.

Brainring daqiqa

1. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega.

2. Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta’sir qilmaydi.

3. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

4. Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda qilishga, shuningdek, har qanday sud muhokamasi yoki ma’muriy muhokama davrida so‘zlashga haqlidir.

Qonun belgilaydi

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 79-modda

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 80-modda

Izlanishda davom eting

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasini o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.

– Siz hali 18 yoshga to‘lmadingiz. Ota-onangizga qanday g‘amxo‘rlik qila olasiz?

– Ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish deganda nimani tushunasiz?

– Siz 18 yoshga to‘lmagansiz, lekin mustaqil daromadga egasiz. Ota-onangizga moddiy g‘amxo‘rlik qilishingiz kerak deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?

– Ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish uchun ularni faqat moddiy ta’minlashning o‘zi yetarlimi?

33-DARS. MEHNAT QONUNCHILIGIDA VOYAGA YETMAGANLARNING HUQUQLARI

Har bir insonning qadr-qimmati o‘z ishini qoyil qilib bajarishidadir.

Abu Rayhon Beruniy

Faollashtiruvchi savollar

1. Voyaga yetmagan shaxslar qanday kasblar bilan shug‘ullanishlari mumkin?
2. Nima uchun bolalarga: “Hali bu kasb bilan shug‘ullanishga erta, hali yoshsan”, — deb aytiladi?
3. Quyidagi vaziyatlarni o‘qing va ularning qaysi birida voyaga yetmaganlarning huquqlari buzilganligini aniqlang.



– 14 yoshli Lola va Barno ta’til kunlarida tikuvchilik korxonasiga ishga kirmoqchi bo‘lishdi. Ish boshqaruvchi: “Bizda sizlarga mos ish yo‘q”, — deb ularni ishga qabul qilmadi.



– Zokirjon ta’til kunlarida savdo do‘koniga sotuvchining yordamchisi bo‘lib ishga kirmoqchi bo‘ldi. Do‘kon egasi unga ota-onasi bilan kelishini va ularning yozma roziligi kerakligini aytdi.

– 15 yoshli Nodir yozgi ta’til kunlarida konservalash korxonasiga ishga kirdi. Bir kun soat 06:00 dan 16:00 ga qadar, ikkinchi kuni 16:00 dan tungi soat 02:00 ga qadar (30 daqiqa tanaffus bilan) ishlay boshladi.



– Gulnoza yozgi ta’til kunlarida kimyoviy tozalash vositalari ishlab chiqariladigan zavodga qadoqlovchi bo‘lib ishga kirdi. Uning ish vaqti (30 daqiqa tushlik bilan) soat 09:00 dan 17:00 ga qadar belgilab berildi.

– Zamira 10 yosh, Alisher esa 7 yosh. Ular ota-onalariga yordam berish uchun dehqon xo‘jaligiga ishga chiqadilar.

– Aziz 14 yosh. U oilasining moddiy ta’minotiga yordam berish uchun bozorga aravakash bo‘lib ishga kirdi. U odamlarning yuklarini aytgan manzillariga tashib bera boshladi.







Fikrimizni tasdiqlaymiz

Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat qilish yoshiga to'lmagan voyaga yetmaganlarni ishga qabul qilish va ularning mehnatidan foydalanish voyaga yetmaganlar mehnatidan noqonuniy foydalanish hisoblanadi.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish ham voyaga yetmaganlar mehnatidan noqonuniy foydalanish hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar mehnatidan majburiy ravishda, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlash orqali foydalanish voyaga yetmaganlar mehnatidan noqonuniy foydalanish hamda majburiy mehnat hisoblanadi.

Qonun belgilaydi

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarning mehnatini mehnat sharoiti zararli va (yoki) xavfli bo'lgan ishlarda, yerosti ishlarida, shuningdek, bajarilishi ularning hayotiga va sog'lig'iga, xavfsizligiga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda (tungi kafe va klublarda, spirtli ichimliklarni, tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik va psixotrop moddalarni, toksik preparatlarni ishlab chiqarish, tashish hamda sotish va boshqalar) qo'llash taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarning ular uchun belgilangan yo'l qo'yiladigan eng ko'p normalardan ortiq bo'lgan og'irlikdagi yuklarni ko'tarishi va tashishi taqiqlanadi.

O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar mehnatining qo'llanilishi taqiqlanadigan va bajarilishi voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga va ma'naviy jihatdan kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida yo'l qo'yiladigan eng ko'p normalar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama respublika komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 412-modda

Hamkorlikda bajaramiz

1. Darsdan bo‘sh vaqtingizda haq to‘lanadigan vazifada ishlashingiz uchun ota-onangizning roziligi shart deb hisoblaysizmi?

2. Sizning fikringizcha, ishlab topilgan pulingizni kim tasarruf qilishi lozim? Sizmi yoki ota-onangizmi? Nima uchun?

3. 15 yoshli Sherzod chiroyli rasm chizadi. Mahalladagi xususiy ta’lim muassasasi rahbari undan haq evaziga sinf xonasiga rasm chizib berishini so‘radi. Sherzodning ota-onasidan rozilik olish zarurmi?

Agar Sherzod kelishilgan vaqtda rasm chizib bera olmasa yoki boshqa sabablarga ko‘ra, chizgan rasmi muassasa rahbarining talabiga mos bo‘lmay qolsa, unda yetkazilgan zararni kim qoplaydi?

Fikrimizni tasdiqlaymiz

O‘qishdan bo‘sh vaqtlarida ishlayotgan o‘quvchilarning ish vaqti muddati o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalar ish vaqti eng ko‘p muddatining yarmidan ortib ketishi mumkin emas. Qolaversa, bolalarni tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilish mumkin emas.

Bundan tashqari, ishni o‘qishlari bilan birga olib borayotgan voyaga yetmaganlarga ish beruvchilar zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi kerak bo‘ladi.

Ham o‘qib, ham mehnat qilishni xohlovchi voyaga yetmagan bolalarga mamlakatimizning mehnat qonunchiligida bir qancha imtiyozlar berilgan. Bularga qo‘shimcha ta’tilga chiqish, qisqartirilgan ish haftasi kabilarni misol qilish mumkin.

Brainring daqiqa

Mehnat qonunchiligiga ko‘ra, 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar mehnatga oid yakka tartibdagi huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqlarga ega bo‘ladi.

Ish vaqti 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga haftasiga 36 soatdan, ta’til davrida ishlayotgan 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun haftasiga 24 soatdan oshmaydigan qilib belgilanadi.



Fikrimizni tasdiqlaymiz

Voyaga yetmaganlarning har kunlik ishi (smenasi)ning davomiyligi quyidagilardan oshishi mumkin emas:

• 15–16 yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun — olti kunlik ish haftasida — to‘rt soatdan, besh kunlik ish haftasida — besh soatdan;

• 16–18 yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun esa olti kunlik ish haftasida — olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — yetti soat-u o‘ttiz daqiqadan;

• o‘quv yili davomida ishni o‘qish bilan birga olib boruvchi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tashkilotlarining 15–16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilari uchun — olti kunlik ish haftasida — ikki soatdan, besh kunlik ish haftasida — ikki soat-u o‘ttiz daqiqadan;

• 16–18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun esa olti kunlik ish haftasida — uch soatdan, besh kunlik ish haftasida — to‘rt soatdan oshmasligi kerak.



Tarixga nazar

Mirzo Ulug‘bek 15–16 yoshidan Samarqandni boshqara boshlagan.

Zahiriddin Bobur 12 yoshida Andijon taxtiga o‘tirib, Temuriylar saltanatini mustahkamlash ishlarini boshlab yuborgan.

Mutsuxito (Meydzi) 15 yoshida Yaponiya imperatori sifatida ish boshlab, mamlakatni rivojlantirish yo‘lida katta islohotlar olib borgan.

Izlanishda davom eting

Quyidagi savollarga javob bering:

– 18 yoshga to‘lmagan shaxs ishga joylashishda ma’muriyatga qanday hujjatlar topshirishi lozim?

– 15 yoshli xodim Zarina 10 oy ishlaganidan so‘ng rahbaridan unga mehnat ta’tili berishni so‘radi. Zarina ishlaganiga 1 yil to‘lmagani uchun unga ta’til berilmadi. Zarinaning huquqlari buzilganmi?

– 15 yoshli Munira fabrikaga tikuvchi bo‘lib ishga kirdi, lekin u bilan mehnat shartnomasi tuzilmasa-da, o‘z vaqtida kelishilgan ish haqi berib turildi. Muniraning mehnat huquqlari buzilganmi?

– Diyorbek 14 yoshda. U qo‘shiq bastalaydi. U qo‘shiqchining iltimosiga ko‘ra, bir nechta she’rga kuy yozib berdi, lekin uni yosh bola deb kelishilgan ish haqini otasiga berishdi. Otasi esa o‘g‘lining mehnatiga to‘langan haqdan norozi bo‘lib, kuylarning narxini oshirishni so‘radi.

Diyorbekning mehnat huquqi buzilganmi? Uning otasi haqmi?

34-DARS. IJODIY FAOLIYAT

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1. Quyida berilgan ta’riflarni javoblar bilan moslashtiring.

1	Axloq normalari —	A	uzoq davr mobaynida amalda bo‘lish natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan xulq-atvor qoidasi.
2	Huquq normasi —	B	qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.
3	Huquqiy odat —	D	yunoncha so‘z bo‘lib, “faraz qilish”, “fikr yuritish” degan ma’noni anglatadi, huquq normasi harakatga kelishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar bayon etiladi.
4	Normativ-huquqiy hujjat —	E	bu huquqning ichki tuzilishi bo‘lib, huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat’iy izchillikda joylashgan tartibi.
5	Gipoteza —	F	huquq ijodkorligi faoliyatining natijasi bo‘lib, faqat vakolatli davlat organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda qabul qilinadi.
6	Huquq tizimi —	G	huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.
7	Huquqiy munosabatlar —	H	bu normalar doimiy ravishda kishilar amaliy faoliyati, ularning o‘zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladi va rivojlanib boradi.

2. Quyidagi masala bo‘yicha shaxsiy fikrlaringizni bayon eting.

Dars mashg‘ulotlari davomida 8-sinf o‘quvchisi Farzona xalqaro shartnoma davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi kelishuv shaklida bo‘lishi mumkinligini bildirib o‘tdi.

Uning Javohir ismli sinfdoshi esa davlatlar o‘rtasidagi kelishuvlar, hukumatlararo kelishuvlar, idoralararo shartnomalar, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasidagi oddiy shartnomalarni ham o‘z ichiga olishi mumkinligini tushuntirib berdi.

Ammo Farzona oddiy shartnomalar xalqaro shartnoma bo‘la olmasligini, xalqaro shartnoma yangi normani yaratish xususiyatiga ega ekanligini ta’kidladi.

Shuningdek, ta’sir etish kuchi, o‘zaro majburiy xarakterga ega bo‘lishi, umumiy va majburiy tusdagi huquqiy normalarni o‘z ichiga olishi, nafaqat normalar, balki huquq prinsiplarini ham qamrab olishi mumkinligini qayd etib o‘tdi.

Xalqaro shartnomalar va jismoniy hamda yuridik shaxslar o‘rtasidagi oddiy shartnomalarning farqli jihatlarini tahlil eting. Xalqaro shartnomaning huquq manbasi sifatida belgilanish sabablarini muhokama eting.

3. Quyida berilgan ta’riflarni javoblar bilan moslashtiring.

1	Huquqiy xulq-atvor —	A	mehnat intizomi, xizmat burchini bajarish, yoki bo‘ysunuvdagi ish faoliyati tartibining buzilishiga qaratilgan xatti-harakat yoki harakatsizlik.
2	Huquqbuzarlik —	B	bila turib yolg‘on, boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish.
3	Intizomiy huquqbuzarlik —	D	huquq-tartibotni saqlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.
4	Tuhmat qilish —	E	huquqbuzarlik sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan huquqiy oqibat.
5	Huquqbuzarliklar profilaktikasi —	F	ijtimoiy xavfli qilmish.
6	Yuridik javobgarlik —	G	huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan qo‘llaniladigan majburlov chorasi.
7	Jazo —	H	huquq subyektlarining huquq normalariga mos keladigan, yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan ongli xatti-harakati (harakatsizligi).

AYRIM YURIDIK ATAMALARNING IZOHLI LUG‘ATI

Adliya (*arabcha “adolat”, “to‘g‘rilik”, “xolislik”, “haqqoniylik”*) — huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyatini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida Adliya organlari faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rahbarlik qiladi.

Advokat (*lotincha “yordamga chaqirish”*) — yuridik va jismoniy shaxslarga malakali huquqiy yordam ko‘rsatuvchi shaxs.

Agressiya (*lotincha “hujum”*) — xalqaro huquqda BMT nizomi nuqtayi nazaridan, qurolli kuchlarning g‘ayriqonuniy qo‘llanilishi, ya’ni davlatlarga nisbatan qurolli tajovuz.

Aliment (*lotincha “ta’minotdagi”, “qaramog‘idagi”*) — bir shaxsning boshqa shaxsga to‘laydigan nafaqasi. Aliment to‘lash majburiyatlari, asosan, nikoh, qarindoshlik aloqalari asosida belgilanadi.

Amnistiya (*yunoncha “unutish”, “kechirish”*) — jinoyat sodir etganlarni jazodan ozod etish yoki uni yumshatish. Sudlanganlarning bir qismini qonun asosida to‘la yoki qisman ozodlikka chiqarish.

Apellatsiya (*lotincha “murojaat”, “shikoyat”*) — sud qarori ustidan shikoyat qilish shakllaridan biri, bunda ishni ikkinchi instansiya sudi tomonlarning shikoyatlari bo‘yicha ko‘rib chiqadi.

Apatrid (*yunoncha “vatandan judo bo‘lgan”, “bevatan”*) — fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, mamlakat fuqarosi hisoblanmaydigan va boshqa xorijiy davlatga mansub ekanligi borasida ham isbotga ega bo‘lmagan shaxs.

Aqli norasolik — ruhiy kasallik yoki aqliy zaiflik holati bo‘lib, shaxsning o‘z harakatlariga baho bera olmasligi yoki ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish paytida ularni boshqara olmasligi.

Aqli rasolik — odamning ruhiy jihatdan sog‘lom holati hisoblanadi. Jinoyat huquqida shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat deb hisoblash va jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy shartlaridan biri. Aqli raso shaxs har qanday jinoyatni sodir qilganda o‘z harakat yoki harakatsizligining jinoyat ekanligini anglaydi va undan kelib chiqadigan oqibatni biladi.

Armiya (*lotincha “qurollantirish”*) — davlat qurolli kuchlari bo‘lib, jangovar amaliyotlar olib borishga mo‘ljallangan bir nechta harbiy tuzulmalarning birlashmasi tushuniladi.

Auditor (*lotincha “tinglovchi”, “o‘quvchi”*) — tashkilotning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazuvchi, malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs.

Aybsizlik prezumpsiyasi (*lotincha “praesumptio” — “taxmin”, “gumon”*) — aybi sud tomonidan isbotlab berilguniga qadar ayblanuvchi yoki sudlanuvchi aybsiz deb hisoblanadigan qoida.

Bezorilik — jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga zarar yetkazish.

Bitim — jismoniy yoki yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari.

Bosqinchilik — o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilgan jinoyat.

Budjet (*inglizcha* “*karmon*”) — davlatning muayyan muddatga qonuniy tartibda tasdiqlangan daromad va xarajatlari ro‘yxati.

Da’vo — fuqaroviy huquqlarni himoya qilish haqida sudga qilingan murojaat.

Da’vogar — buzilgan huquqini himoya qilish uchun sudga murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Deklaratsiya (*lotincha “e’lon”, “bayonot”*) — 1) tavsiya kuchiga ega bo‘lgan huquqiy hujjat (xalqaro deklaratsiya); 2) bojxona deklaratsiyasi — moddiy boyliklarni chegara orqali olib o‘tish chog‘ida tuziladigan hujjat; 3) soliq deklaratsiyasi — shaxsning soliqlarni to‘lash uchun o‘z daromadi miqdori to‘g‘risidagi hujjat; 4) siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjati yoki umume’tiboriga yetkazuvchi bayonot.

Demokratiya (*yunoncha “xalq hokimiyati”*) — xalq hokimiyatchiligi, siyosiy pluralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlari singari konstitutsiyaviy prinsiplarni e’tirof etishga asoslangan siyosiy tartibot shakli.

Deputat (*lotincha “elchi”, “vakil”*) — davlatning qonun chiqaruvchi yoki boshqa bir vakillik organiga saylangan shaxs.

Diskriminatsiya (*lotincha “farqlash”*) — xalqaro yoki milliy munosabatlarda biror davlatning, yuridik yoki jismoniy shaxsning huquq va imtiyozlarini boshqalarga nisbatan cheklash, kamsitish.

Ekspertiza (*lotincha “tajribali”*) — muayyan masalalarning ekspertlar tomonidan tekshirib o‘rganilishi.

Emansipatsiya (*lotincha “qaramlikdan ozod bo‘lish”*) — fuqarolik huquqida voyaga yetmagan shaxsni to‘liq muomalaga layoqatli deb e’lon qilish.

Federatsiya (*lotincha “ittifoq bilan mustahkamlamoq”*) — davlatlar birlashmasi bo‘lib, bunda birlashuvchi davlatlar qonun bilan belgilangan mustaqillikni saqlab qolgan holda yagona ittifoq fuqaroligiga, yagona ittifoq armiyasiga, yagona ittifoq davlat organlariga ega davlat birligini tashkil etadi.

Firibgarlik — aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish.

Fuqarolik — shaxsning aniq davlat bilan barqaror siyosiy-huquqiy aloqalari.

Fuqarolik jamiyati — insonning barcha huquqlari kafolatlanadigan, mafkuraviy pluralizm ta’minlanadigan, yuksak huquqiy madaniyatga ega shaxslardan iborat jamiyat.

Genotsid (*yunoncha “genos” — “urug‘”, “qabila” va lotincha “caedo” — “o‘ldiraman”*) — aholi ayrim guruhlarini milliy, irqiy, diniy bahonalar bilan qirib tashlash.

Guvoh — ro‘y bergan hodisani shaxsan o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi. Mazkur ishga doir aniqlanishi kerak bo‘lgan qandaydir holatlar unga ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs.

Haqorat qilish — kishining sha’ni va qadr-qimmatini qasddan, beodob shaklda kamsitishda ifodalanadigan huquqbuzarlik.

Hukm — jinoyat ishlari bo‘yicha sudning ayblanuvchiga jazo berish yoki uni oqlash to‘g‘risida chiqargan qarori.

Huquqiy munosabat — ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan qismi.

Huquq layoqati — shaxsning huquqlar va burchlarga ega bo‘lish imkoniyati.

Immunitet (*lotincha “biror narsadan ozod qilish”*) — alohida mavqeni egallagan shaxslarga taqdim etiladigan ba’zi umumiy qonunlarni istisno qiluvchi mutlaq huquq. Masalan, sudya, deputat, senator va davlat boshlig‘iga beriladigan daxlsizlik huquqi.

Intellektual mulk — ijodiy faoliyat natijalariga doir maxsus huquqlarning majmuyi.

Ishsizlar — ish va ish haqiga ega bo‘lmagan, o‘zlariga to‘g‘ri keladigan ishni izlash maqsadida bandlik xizmatida ro‘yxatga olingan mehnatga layoqatli shaxslar.

Jabrlanuvchi — jinoiy harakati natijasida zarar ko‘rgan shaxs.

Jarima — aybdordan davlat daromadiga qonunda belgilangan miqdorda undiriladigan pul summasi.

Jazo — huquqbuzar deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi asosida qo‘llaniladigan, muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilishdan iborat majburlov chorasi.

Jinoyat — qonun bilan taqiqlangan, jazoga loyiq, ijtimoiy xavfli qilmish.

Jismoniy shaxs — fuqaro, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

Kassatsiya (*lotincha “bekor qilish”*) — kuchga kirgan sud qarori yoki hukm ustidan yuqori sudga shikoyat qilish.

Kodeks (*lotincha*) — huquqning biror tarmog‘iga oid qonun-qoidalar to‘plami.

Kompensatsiya (*lotincha “to‘lash”*) — fuqarolik-huquqiy majburiyatlar buzilishi natijasida yuzaga kelgan zararni to‘lash.

Konstitutsiya (*lotincha “tuzilish”*) — davlat tuzilishi, organlar tizimi, davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, fuqarolarning asosiy huquq va burchlarini belgilab beradigan asosiy qonun.

Konvensiya (*lotincha “kelishuv”*) — xalqaro shartnoma turlaridan biri bo‘lib, majburiy ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya (*lotincha “aynish”, “sotilish”*) — mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste’mol qilishi.

Kvorum (*lotincha “yetarlicha hozirlik”*) — yig‘ilish qatnashchilarining uning qarorlari haqiqiy deb tan olinadigan eng kam soni.

Legitimlik (*lotincha “qonuniy”*) — huquq yoki vakolat qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash.

Litsenziya (*lotincha “ruxsatnoma”, “huquq”*) — vakolatli davlat organlari tomonidan tegishli faoliyat olib borish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Mayda bezorilik — jamoat joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik.

Meros — vafot etgan shaxsning qarindoshlari va boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga o‘tadigan mulk.

Muomala layoqati — fuqarolarning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquq va maj-

buriyatlarini olish va amalga oshirish, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini yaratish va ularni bajarish layoqati.

Naturallashtirish (*fransuzcha “tabiiy”*) — xorijiy shaxsni fuqarolikka qabul qilish.

Notarius — notarial harakatlarni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs.

Ombudsman (*shvedcha “allakimningdir manfaatlari vakili”*) — davlat organlari tomonidan inson huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

Parlament (*inglizcha va fransuzcha “so‘zlamoq”*) — davlatning oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organining nomlanishi. O‘zbekistonda Oliy Majlis.

Preambula (*fransuzcha “so‘zboshi”*) — qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning kirish qismi.

Prezident (*lotincha “oldinda o‘tiruvchi”, “boshda turuvchi”*) — respublika boshqaruv shakliga ega mamlakatlarda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i.

Qasamyod — ont ichish, biror narsani bajarishga rasmiy yoki tantanali ravishda va’da berish. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qasamyodi.

Qasd — aybning shakllaridan biri. Bunda jinoyatchi o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, zararli oqibatlarini biladi va unga ongli ravishda qo‘l uradi.

Qonun — eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjat.

Referendum (*lotincha “bildirilishi shart bo‘lgan narsa”*) — barcha fuqarolar ishtirok etadigan umumxalq so‘rovi.

Sanksiya (*lotincha “qat’iy qaror”*) — huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan qo‘llaniladigan ehtiyot chorasi.

Sessiya (*lotincha “yig‘ilish”*) — majlis, kengash, vakolatli organlarning tashkiliy-huquqiy faoliyat shakli.

Senzura (*lotincha “davlat nazorati”*) — davlat tashkiloti tomonidan ko‘ngilsiz yoki zararli deb topilgan g‘oyalar va ma’lumotlarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki cheklab qo‘yish maqsadida bosma nashrlar, sahna asarlari va hokazolar mazmuni ustidan davlat nazorati.

Standart (*inglizcha “norma”, “mezon”, “asos”*) — standartlashtirish obyektiga nisbatan talablarni belgilaydigan normativ-texnik qoidalar.

Suverenitet (*fransuzcha “oliy hokimiyat”*) — davlatning mamlakat ichidagi va uning tashqi munosabatlardagi mustaqilligi.

Talonchilik — mol-mulkni ochiqdan ochiq talon-taroj qilish.

Terrorizm (*lotincha “qo‘rquv”, “dahshat”*) — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining

Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.

Tovlamachilik — zo‘rlik ishlatish tahdidi bilan mol-mulkni berishni talab qilishga qaratilgan jinoyat.

Tuhmat — boshqa shaxsni badnom qiladigan yolg‘on ma’lumotlarni qasddan tarqatish.

Umumiy mulk — qonunchilikka ko‘ra ikki yoki undan ortiq shaxsga tegishli mulk.

Umumiy saylov huquqi — qonunda belgilangan yoshga yetgan barcha fuqarolar hokimiyatning vakolat organlariga bo‘ladigan saylovlarda qatnashish huquqi.

Unitar (*lotincha “oddiy”, “yagona”*) — yagona, birlashgan, bir butunni tashkil etuvchi; davlat tuzilish shakli.

Ushlab turish, hibs — jinoiy qilmishni sodir etishda shubhalanayotgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan, ushlangan shaxsning jinoyatga daxldorligini aniqlash va uni qamoqqa olish mumkinligi masalasini hal etish maqsadida 48 soatdan oshmaydigan qisqa muddatli majburlov chorasi.

Vijdon erkinligi — shaxslarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi.

Voyaga yetmaganlar — 18 yoshga to‘lmagan shaxslar.

Viza (*lotincha “o‘tkazilgan”, “ko‘zdan kechirilgan”*) — pasportda davlatning hududiga kelishga, undan ketishga va davlat hududida yashab turishga bo‘lgan maxsus ruxsatni bildiruvchi belgi. Pasportdagi belgi davlatning kelish, chiqish, hudud orqali o‘tishga yoki yashashga ruxsatini anglatadi.

Yuridik javobgarlik — jazoga tortish, yuridik majburiyatlarni buzgan shaxs, aybdorga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan sanksiyalarni qo‘llash.

Yuridik faktlar — huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bilan bog‘liq harakat va hodisalar.

Yuridik shaxs — o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.

Shartnoma — ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.